

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI  
INSTITUTI**

**Fatxulloyev Alisher Mirzotilloyevich**

**Gapparov Furkat Axmatovich**

**Nazaraliev Dilshod Valijonovich**

**Mansurov Safar Raxmankulovich**

**EKSPLUATATION GIDROMETRIYA**

5141100 – Gidrologiya (suv omborlarida);

5141700 – Daryo va suv omborlari gidrologiyasi;

5450200 – Suv xo`jaligi va melioratsiya

5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish

Toshkent 2021 yil

Ushbu o'quv qo'llanma institut ilmiy-uslubiy Kengashining . . . 2020 yilida bo`lib o`tgan -sonli majlisida ko`rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Mazkur o'quv qo'llanmada ekspluatatsion gidrometriya to'g'risida ma'lumotlar, gidromeliorativ tizimda suvni hisobga olish xizmati va uning vazifalari, hidromeliorativ tizimdagi hidrometrik ishlari va suvni hisobga olish usullari, suvni hisobga olish vositalari, suvni o'lhash vositalariga quyilgan asosiy talablar, suvni hisobga olish vositalarini tanlash, ularni qo'llash va qayta tekshirish, ekspluatatsion hidrometriyadagi suv sarfini hisobga olishning o'zanli usuli, tranzit suv sarfini hisobga olish uchun qo'llaniladigan suv o'lhash inshootlari va moslamalari, suv o'lhash ostonasi va parabolik novlar, suv o'tkazgichlar- vodoslivlar, suv o'lhash nasadkalar, suv o'lchagich-rostlovchilar, tarirovkalangan hidrotexnika inshootlar, suvni hisobga olish uchun qo'llaniladigan xozirgi zamon avtomatlashtirilgan moslamalari va ularning qo'llanilishi to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.O'quv qo'llanma bakalavriatura va magistratura talabalari uchun mo'ljallangan, undan ilmiy xodimlar, suv omborlari ekspluatatsiyasi bilan shug'ullanuvchi muxandis-texnik xodimlar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: M. Ikramova. Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti. Suv resurslaridan kompleks foydalanish laboratoriysi mudiri, prof., t.f.n.

A. Yangiyev, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti «Gidrotexnika inshootlari va muhandislik konstruksiyalari» kafedrasi prof, t.f.d.

## **Аннотация**

В учебном пособии рассмотрены следующие вопросы: общие положения эксплуатационной гидрометрии, задачи службы учёта воды на гидромелиоративной сети, гидрометрические работы, виды замеров расходов воды, методы учёта воды, группы, классы средств учёта воды, основные требования к средствам учёта воды, общие положения пересмотру, выбору и применению средств учёта воды, характеристика водомерных сооружений и устройств, водомерные сооружения и устройства для учёта транзитных расходов воды, водомерные пороги и лотки, насадки, водосливы с тонкой стенкой, водомерны – регуляторы, тарированные гидротехнические сооружения, современение автоматизированное устройства для учёта воды и их применение

Учебник рассчитан для студентов бакалавров и магистрантов, научных работников, инженерно-технических работников эксплуатационных организаций.

## **Annotation**

The textbook covers the following issues: general provisions of operational hydrometry, tasks of the water accounting service on the irrigation and drainage network, hydrometric work, types of measurements of water flow rates, water accounting methods, groups, classes of water accounting devices, basic requirements for water accounting means, general provisions for revision, the choice and use of water metering devices, characteristics of water metering structures and devices, water metering structures and devices for metering transit water flows, water metering thresholds and trays, nozzles, weirs with a thin wall, water meters - regulators, calibrated hydraulic structures, modern automation of devices for water metering and their application

The textbook is designed for undergraduate and graduate students, researchers, engineering and technical workers of operating organizations.

## I FAN HAQIDA MA'LUMOTLAR

### 1.1 Gidrometriya haqida umumiy tushuncha

Gidrometriya keng ko'lamgi gidrologiya fanining amaliy qismidir. Suv manbalarining hidrologik rejimi hidrometrik o'lhash ma'lumotlari asosida yoritiladi va umumlashtiriladi. Gidrometriya yunon so'zidan olingan bo'lib, "hidro"- suv "metriya"- o'lhash ya'ni suvni o'lhash ma'nosini bildiradi. Amalda esa hidrometriya fani faqatgina suvni o'lhash ishlari bilan emas, balki kompleks hidrometrik ishlarni amalga oshirish bilan ham shug'ullanadi.

Gidrometriya fanida suv manbalari rejimi elementlarini kuzatish usullari va hidrometrik ishlarni amalga oshirishda foydalaniladigan asbob va jihozlar hamda kuzatish natijalarini qayta ishlash usullari kiritiladi. (GOST 19179-73).

Gidrometriya fanining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi. 1) suv manbai rejimining harturli elementlarini miqdoriy aniqlash hisobga olish uchun usullari va asboblarini ishlab chiqarish; 2) suv sathlari, suv va suv oqiziqlar sarflari, suv harorati, suvlarni kimyoviy takibi, mo'zlanish hodisalari va boshqalarning ko'p yillik tavsiflarini aniqlash uchun suv manbalarining hidrologik rejimini muntazam o'rGANISH.

Suv manbalarining hidrologik rejimi haqidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash, umumlashtirish, bir so'z bilan aytganda, ularni o'rGANISH hidrotexnik inshootlarni loyihalash, qurish va ekpluatatsiya qilishda hidrologik va suv xo'jaligi hisoblashlarini bajarishda juda zarurdir.

YUqorida qayd etilgan ishlarni bajarishda hidrometriyada uchta tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

- statcionar;
- ekspeditsiya (ilmiy safar);
- eksperimental (laboratoriya);

Gidrometriya kursida hidrologik stansiya va postlarning tuzilishi va jihozlanishi, ularda kuzatishlarni tashkil etish, suv manbalari rejimi elementlarini o'rGANISH uchun usullari va asboblarni yaratish ko'rib chiqiladi.

## 1.2 Gidrometriya turlari

Gidrometriya suvlarning qaysi sharoitda bo‘lishiga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi:

- a) atmosfera suvlari gidrometriyasi;
- b) er usti suvlari gidrometriyasi.

Er usti suvlari gidrometriyasi esa quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) okean va dengizlar gidrometriyasi – amaliy okeanografiya;
- 2) quruqlik suvlari gidrometriyasi: daryolar, ko‘llari, suv omborlari va botqoqliklar, uni ko‘pincha daryo gidrometriyasi deb ham atashadi;
- 3) er osti suvlari gidrometriyasi.

YUqorida qayd etilgan gidrometriya qismlaridan daryo giometriyasi va amaliy okeonografiya (dengiz gidrometriyasi) keng o‘rganilayotgan muhim fan darajasiga ko‘tarilgan. Keyingi yillarda sug‘orish tizimlaridan foydalanish jarayonida gidrometriyaning muhim sohasi bo‘lgan ekspluatatsion gidrometriya rivoj topdi va fan sifatida shakllandi.

## 1.3 Ekspluatatsion gidrometriya fani asoslari va vazifalari

Ekspluatatsion gidrometriya – suv xo‘jaligi tarmoqlarida suvdan to‘g‘ri foydalanish tartiblarini amalga oshirish, suvni o‘lchash usullari va nazorat qilish chora-tadbirlari haqidagi fan. Bir so‘z bilan aytganda, sug‘orish tizimidagi ishlarni olib borishdan maqsad-sug‘orish manbaidan olinadigan suvni tizimdagi kanallarga va sug‘oriladigan maydonlarga suvdan foydalanish rejasi asosida berilishini hisobga olish va suv iste’molchilar tomonidan ishlatiladigan sug‘orish suvini miqdoriy nazorat qilishdan iborat. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan gidrometrik ishlar yig‘indisi **ekspluatatsion gidrometriya** deb ataladi.

Ekspluatatsion gidrometriyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- a) sug‘orish manbaidagi suv zaxirasini hisobga olish va uni vaqt oralig‘ida (yillar bo‘yicha va yil ichida) o‘zgarib turishini o‘rganish;

- b) sug‘orish manbalaridan magistral kanalga olinadigan suvni hisobga olish va boshqarish;
- v) sug‘orishga mo‘ljallangan suv miqdorlarini iste’molchilarga va ularni guruhlari orasida to‘g‘ri taqsimlashda tizimdagi kanallarda suv sarfini o‘lchash va boshqarish;
- g) kanallarni va qurilmalarni to‘g‘ri texnikaviy ekspluatatsiya qilishni ta’minlash;
- d) kanallarda sodir bo‘ladigan suv isroflarini va tizimni foydali ish koeffitsientini aniqlash uchun dastlabki gidrometrik ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish.

#### **1.4 Ekspluatatsion gidrometriyaning gidromeliorativ tarmoqdagi ahamiyati**

Ekspluatatsion gidrometriya limitli suvdan foydalanishni amalga oshirish bo‘yicha ko‘riladigan chora-tadbirlarni eng asosiy qismi hisoblanadi.

Ko‘pgina tumanlarda suv zahiralari chegaralangan va ayrim joylarda sug‘orishga muxtoj erlarda suv etishmaydi. Sug‘oriladigan suvni tejash zarur va uni amalda kerakligini sarflash kerak. Ekin maydonlariga keragidan ko‘p suv berilishi qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va bundan tashqari erlarning meliorativ holatini yomonlashtiradi.

Suvdan to‘g‘ri foydalanish sug‘orma erlardan yuqori hosil olishning asosiy shartlaridan biridir. Bu narsa faqat sug‘orishga ajratiladigan suvlarni to‘g‘ri hisobga olish bilan amalga oshirsa bo‘ladi.

SHunday qilib, ekspluatatsion gidrometriyada ko‘riladigan chora-tadbirlar qo‘shimcha maydonlarni suv bilan ta’minlash imkonini beradi, sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanishini oldini oladi va sug‘oriladigan erlarda o‘simliklarning rivoji uchun qulay suv rejimini yaratadi. SHuning uchun har bir sug‘orish tizimi suvni rostlaydigan va suv miqdorini o‘lchaydigan qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda sug‘orma suvlarni hisobga olish va ularni to‘g‘ri taqsimlashga katta etibor berilyapti. Sug‘orishning yangi tizimiga o‘tish, Suvdan foydalanish uyushmasini tashkil topishi, suvga bo‘lgan to‘lovnin joriy etilishi; sug‘orish tizimining xo‘jalikning hisob-kitobiga o‘tishi, kanallardan, suv omborlaridan bo‘ladigan suv isroflarini kamaytirish chora-tadbirlar va x.k. shular jumlasidandir.

### **Sinov savollari:**

1. Gidrometriya qaysi fanning amaliy bo‘limi hisoblanadi?
2. Gidrometriyaning qanday turlari mavjud?
3. Gidrometriyaning qaysi turlari fan sifatida tanilgan?
4. Ekspluatatsion gidrometriyaning ta’rifini bering?
5. Ekspluatatsion gidrometriyaning vazifalari nimalardan iborat?
6. Ekspluatatsion gidrometriyaning axamiyati nimalardan iborat?

## **II. GIDROMELIORATIV TIZIMDA SUVNI HISOBGA OLİSH XİZMATI VA UNING VAZİFALARI**

### **2.1 Gidromeliorativ tizim haqida tushuncha**

G id r o m e l i o r a t i v t i z i m - o ‘simliklarning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan suv, issiqlik, ozuqa tartibotlarini ta’minlab beruvchi injenerlik inshootlari majmui. Gidromeliorativ tizimning asosiy kismlari sug‘orish va zax qochirish shahobchalaridan iborat. Sug‘orish shahobchasi o‘z navbatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi: suv manbai (daryo, suv omborlari, er osti suvlari); suv oluvchi inshootlar bo‘g‘ini (to‘g‘onsiz, to‘g‘onli, er ostidan) to‘g‘onlar (tuproqli, yog‘ochli, toshli, betonli, temir bitonli); nasos stansiyalari, kanallar, quvurlar, gidrotexnik inshootlar (o‘tkazuvchi, ulovchi, rostlovchi); yomg‘irlatuvchi uskunalar va sug‘oriladigan maydonlar. Zax qochiruvchi shahobchasiga quyidagilar kiradi: drenalar (ochiq, yopiq) tik quduqlar, kollektorlar, gidrotexnik inshootlar, nasos stansiyalari, zaxi qochiriladigan maydonlar.

G id r o m e l i o r a t i v t i z i m d a g i s u v n i h i s o b g a o l i s h x i z m a t i hozirgi tizimlardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning asosiy qismidir. Bu xizmat suvdan foydalanish limitini to‘zish va amalga oshirish, hamda sug‘orma suvdan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilish uchun tizimni kerakli gidrometrik ma’lumotlar bilan o‘z vaqtida ta’minlashi shart.

### **2.2. Gidromeliorativ tarmoqda suvni hisobga olish vazifalari**

G id r o m e l i o r a t i v t a r m o q d a s u v n i h i s o b g a o l i s h x i z m a t i n i n g a s o s i y v a z i f a l a r i g a quyidagilar kiradi:

1. O‘zgidromet bilan xamkorlikda tizimning suv zahirasini belgilash;
2. Suvdan foydalanish rejasiga suv ta’mnoti, suvning tabiiy rostlanganligi, suv-er balansini tuzish va ayrim o‘zgartirishlar kiritishda kanallar, taqsimlash tarmoqlaridagi suv isroflari, tizimning f.i.k.ni aniqlash uchun suv sarflari va boshqa gidrometrik tavsiflarni aniqlash;

3. Tizimning xoxlagan joyidagi olinayotgan suvni, suv olishni, suvdan foydalanuvchilarning xo‘jalik, texnik va boshqa maqsadlarda suvni to‘g‘ri taqsimlash va ajratish va boshqa maqsadlar uchun tizimni kerakli ma’lumotlar bilan ta’minalash;
4. Sug‘orish kanallarini va inshootlarni to‘g‘ri texnikaviy ekspluatatsiya qilish, hamda loyihalash va tizimning ish unumdorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tizim bo‘yicha aniq gidrometrik hisob-kitobni to‘zish;
5. Gidromeliorativ tizimdagi nasos stansiyalar, mashinli kanallar, kollektor-drenaj, suv oluvchi va boshqa tarmoqni rejimini va ishlash sharoitini ifodalovchi gidrometrik ma’lumotlarni olish;
6. Faqatgina suvdan unumli foydalanishni va ish sharoitini, nasos rejimini nazorat qilib qolmasdan, balki to‘yinish manbaida tizimdagi kanallarda, suv xavzalaridagi sug‘orma suvlar sifatini ham nazorat qilish.

YUqorida qayd etilgan sug‘orma suvlarni hisobga olish xizmatining vazifalari gidrometrik ishlar bo‘yicha tegishli tashkilotlar yordamida amalga oshiriladi.

Ishlar gidrometrlardan iborat maxsus ekspluatatsiya guruhi bilan tizimdagi boshqa xodimlarni taklif etib bajariladi.

### **2.3 Suvni hisobga olish joylari**

Mamlakatimiz xududidagi daryolarning gidrologik rejimi O‘zbekiston Respublikasi Gidrometxizmatidagi asosiy, mahsus stansiya va postlardan tashkil topgan davlat gidrometeorologiya tarmoqlarda o‘rganilayapti. Asosiy yoki tayanch gidrometeorologik stansiya va postlar muqim (doimiy) bo‘lib, ular rejimli va amaliyga (axborot beruvchi) bo‘linadilar. Rejimli postlarda gidrologik rejimning mahalliy xususiyatlari o‘rganilsa, amaliylarda halk jujaligi tashkilotlarini ma’lum kundagi gidroligik parametrlar hakida ma’lumot beradi, gidrologik rejim elementlari bo‘yicha prognoz tuziladi.

Maxsus stansiya va postlar mahsus maqsadlarda gidrometeorologik sharoit va rejimlarning mahalliy xususiyatlarini o‘rganadi.

Ularning o‘rnatilish muddati ular oldiga qo‘yilgan vazifalarga bog‘liq.

Gidrometxizmati stansiya va postlari turlarga (gidrologik, aerologik, meteorologik va b.) va razryadlarga (I.II.III- stansiyalar va I.II.III razryadli postlarga) bo‘linadilar.

Daryolar, ko‘llar, suv omborlarida va boshqa suv oqimlarida joylashgan II va III- razryadli gidrologik stansiya va postlarda kuzatishlar va o‘lchashlarni I- razryadli stansiya va postlar dasturi bo‘yicha olib boradilar.

Mamlakatimiz suv xo‘jaligi stansiya va postlarning yaxlit gidrometeorologik tarmokdan tashqari turli vazirliklar, (Qishloq va suv xo‘jaligi, Energetika va elektrifikatsiya, Geologiya va b.) tamonidan tashkil etilgan stansiya va postlarning gidrometrik tarmog‘i mavjud. Bu stansiya va postlar xalq xo‘jaligining har turli sohalari uchun zarur. SHuni qayd etish kerakki, tashkilotlarga qarashli gidropostlar soni gidrometeoxizmatdagi stansiya va postlar soniga nisbatan bir necha marta ko‘pdir.

Sug‘orma suvlarni hisobga olish joylari tizimga suv olish va uning kerakli joylariga suv berish sharoitlariga va qo‘yiladigan texnikaviy talablagaga, hamda zarur gidrometrik ishlarni olib borish uchun qulayligiga qarab tanlanadi. Har bir suvni hisobga olish joyi suv sarfini o‘lchash imkonini beradigan mahsus moslama bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

## **2.4 Suv o‘lchash joylari tasnifi**

Gidromeliorativ tarmoqlaridagi suvni hisobga oluvchi tashkilotlarga tegishli gidrometrik tarmoq tarkibiga quyidagi maxsus gidrometrik postlar guruhlari kiradi:

- a) tayanch postlar sug‘orish manbalari (daryolar, kanal, suv omborlari)dagi suv zahirasini hisobga olishga mo‘ljallangan;
- b) bosh postlar suv taqsimlagichlarda va suvdan foydalanuvchilarda o‘rnatilib, suvdan foydalanuvchilar orasida taksimlanadigan suvni hisobga olishga mo‘ljallangan;
- v) bosh postlar bosh kanallarda o‘rnatilgan bo‘lib, tizimga olinadigan suvni hisobga olish uchun mo‘ljallangan.


g) suvni ajratish nuktalardagi postlar ayrim xo‘jaliklar-iste’ molchilarga (fermer, dexkon xo‘jaliklari) mo‘ljallangan;

d) Sug‘orish manbalaridagi balansli postlar sug‘orish va chiqarma suvlarga (sbros) kanallarida chiqarma va tranzit suvlarni va tarmoqdagi suv isrofini hisobga olishga mo‘ljallangan;

e) Maxsus postlar tizimning ishlashini va uning ayrim elementlarini (misol uchun, kanaldagi suv isrofi miqdorini, g‘adir-budirlik koeffitsientini) o‘rganish uchun qo‘shimcha gidrometrik ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida o‘rnataladi.

Irrigatsiya tizimlaridagi sug‘orma suvni hisobga olish joylarining barchasi ekspluatatsion gidrometriyaning postlari deb ataladilar.

Ekspulatatsion gidrometriyaning postlarini joylashtirish chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



**1.rasm. Gidropostlarning joylashish sxemasi.**

## **2.5 Suvni o‘lchash joylarini o‘rnatish shartlari**

Suv iste’molchilariga (xo‘jaliklarga, korxonalarga) ajratiladigan suvni hisobga olish postlari, ya’ni suvni ajratish postlari, ularning joylashishi xo‘jaliklarning chegarasi va xo‘jalikichi tarmokning joylashishi bilan belgilanadi;

Mazkur xo‘jalikdagi suvdan foydalanuvchilar o‘rtasida suvni taqsimlash va nazorat qilish uchun xo‘jalikichi sug‘orish tarmog‘idagi postlar (xo‘jalikichi suvni ajratish gidropostlari);

Suvni tashlab yuboriladigan joylarda, uning foydalanilmaydigan miqdorini belgilash uchun o‘rnatilgan postlar (tashlab yuborish gidropostlari);

Drenaj suvlari qo‘yiladigan joylardagi kollektorlarda, drenaj kanallarda yoki birinchi tartibli kollekorlardagi ularning to‘plami, drenaj suvlarni tashlab yuborish nuktalardagi, drenaj suvlarni yigadigan kanal boshidagi (vertikal drenajlarda) suvni hisobga olish postlarda.

Tizimdagi kanallardagi suv safini hisobga oluvchi yuqorida ko‘rsatilgan postlardan tashkari yana suv sathini kuzatuvchi rejimli postlar, kanallarda mumkin bo‘lgan kritik (eng yuqori) suv sathini nazorat qiluvchi postlar ham o‘rnatiladi. Chunki belgilangan eng yuqori suv sathidan suvni ko‘tarilishi kanaldagi dambalarga xavf keltiradi.

Sug‘orish tarmog‘ida suvni hisobga olish joylarini joylashtirish xolati va unga qo‘yilgan talab suvni o‘z vaqtida boshqarishni ta’minlash va butun tizim yoki uning ayrim qismlari (magistral, taqsimlagich va b.) bo‘yicha, shu bilan birga sug‘orish tarmog‘ini o‘z ichiga olgan sug‘oriladigan xududning qismlari bo‘yicha suv balansini aniqlash kiradi.

Suv o‘lchash tarmog‘idagi postlar balansning asosiy elementlarini, ya’ni ob’ektga boriladigan va undan chiqadigan suv sarflari xaqidagi ma’lumotlarni berishi kerak. Bu ma’lumotlarni kerakli qayta ishslash ishlaridan so‘ng, xo‘jalik, texnik, maishiy maqsadlarga (foydali suv sarfi), suv isroflariga ketgan sarflar (o‘zanli va texnikli), sugoriladigan suvlarning kaytib chikishi (vozvrat) yoki ularni grunt suvlari hisobiga to‘ldirilishi va butun tizimdan va uning ayrim kismlaridan tashlab yuboriladigan foydalanilmagan suvlar sarfi aniqlanadi.


Suv o‘lchash postlari kam sonli bo‘lib, gidrometriyaning barcha vazifalarini xal kilishni ko‘zlab joylashtirilishi kerak. Imkoni bo‘lsa bitta post birnecha vazifalarni bajarishi kerak. Masalan, balansli post bir vaqtning o‘zida ajratiladigan suvni hisobga olishi yoki bir xo‘jalikdan ikkinchisiga suvni beruvchi post bo‘lib. ikkinchi post uchun balansli post hisoblanadi.

Gidrometrik postlarning konstruksiyasi va ularning jihozlanishi xozirgi zamon talablariga mos bo‘lib, amalda gidravlik kursatkichlar: suv sathi, oqimning tezligi

va sarfi, suvning yig‘indi oqim xajmi, suvning loyqaligi, muallaq va suv osti oqiziqlarining tarkibi, oqiziqlar sarfi va xajmi, suvning kimyoviy va umumiylifoslanishini o‘lchashni ta’minlashi kerak.

Suvni hisobga olish postlar tarmog‘ini loyxalashning umumiylidagi qoidasi-bevosita hisobga olish, ya’ni boshqa postlardagi ma’lumotlar bo‘yicha (misol uchun kanaldagi suv sarfini, taqsimlagichlardagi sarflarni jamlash yoki olib tashash).

Tumanda, tumanlararo va xo‘jaliklararo suvni taqsimlashda gidrometrik postlarni joylashtirish tarmog‘ining taxminiy chizmasi 2- rasmlarda keltirilgan.



**2.rasm. Tuman, tumanlararo va xo‘jaliklararo suv taqsimlashda suvni hisobga oluvchi gidrometrik postlarning joylashish sxemasi.**

#### **Sinov savollari:**

1. Gidromeliorativ tizim nimalardan iborat?
2. Suvni hisobga olish xizmatining tarkibi?
3. Suvni hisobga olish xizmati vazifalari nimalardan iborat?
4. Suv o‘lchash joylari kanday guruxlarga bo‘linadilar?
5. Suv o‘lchash joylarini o‘rnatishning asosiy shartlariga nimalar kiradi?

### **III. GIDROMELIORATIV TIZIMDAGI GIDROMETRIK ISHLAR VA SUVDI HISOBGA OLİSH USULLARI**

#### **3.1 Gidrometrik ishlar haqida tushuncha**

G id r o m e t r i k i sh l a r: suvning gidrologik tavsiflarini o‘lhash maqsadida suv ob’ektlarida olib boriladigan ishlar majmuidir. Gidrometrik ishlariga kuyidagilar kiradi: suv sathining o‘zgarishini ko‘zatish va joyni tegishli qurilmalar bilan jihozlash, suv sarfi va cho‘kindilarini o‘lhash, suv oqimini hisoblash, qurilmalarni darajalash, suv harorati va muz kalinligini ko‘zatishdan iborat. (Gost 1979-73).

#### **3.2 Gidrometrik ishlar turlari**

Gidromeliorativ tizimda ekspluatatsion gidrometriya bo‘yicha ishlar ikki turga bo‘linadi:

- a) tayyorgarlik ishlari;
- b) kundalik ishlari;

Tayyorgarlik ishlarga qo‘yidaglar kiradi: suv o‘lhash postini loyihadagi ko‘rsatkichlarga mosligini tekshirish; asboblarni o‘rnatish va ularni ishga solish; sinovli suv sarflarini o‘lhash, gidrostvorni vertikallarga bo‘lish; suv o‘lhash postida gidrometrik ishlar olib borish uchun sharoitni o‘rganish; kanalning gidrost qismida suvni oqib o‘tishini o‘rganish; postning texnikaviy guvohnomasi va uni joylashish chizmasini to‘zish.

Ishga solingan postlardagi kundalik ishlar suvni hisobga olish usuliga, gidropostning jihozini turiga, texnikaviy jihozlanishiga bog‘liq bo‘lib, qo‘yidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: muntazam va nazorat ko‘zatuvlari, suv sathlari va sarflarini o‘lhash; postlardagi inshootlarning sozligini, suv o‘lchagich sifatida ularning to‘g‘ri ishslashini nazorat qilish, shu bilan birgalikda postlardagi jihozlar va asboblarning nosozligini bartaraf etish; postlardagi jihozlarni joriy ta’mirlash, profilaktika chora-tadbirlari, yig‘ilgan gidrometrik axborot va ma’lumotalrni qayta ishslash.

Gidrometrik ishlarning unumdorligini oshirish va olingan axborotdan foydalanishni tezlashtirish uchun avtomatika va telemexanika vositalari bilan jihozlangan hozirgi zamon konstruksiyasidagi suv o‘lhash inshootlari, postlar va moslamalarni qo‘llash. Sug‘orish tizimlari boshkarmasi (STB) ko‘zatish materiallarini qayta ishslashda elektron hisoblash mashinalari (EXM) va hisoblash jihozlaridan foydalanish zarur.

Gidromeliorativ tizimdagи gidrometrik postlarida va suv taqsimlagich joylarida vaqtı-vaqtı bilan va muntazam suv sarflari o‘lchanadi.

Suv sarflarini vaqtı-vaqtı bilan nazorat o‘lhashlar suv sarfi va suv sathi o‘rtasida bog‘lanishni to‘zish uchun, suv o‘chash asboblarini tekshirish uchun, to‘zatmalar kiritish uchun tarirovka va nazorat o‘tkaziladi.

Muntazam suv sarflarini o‘lhash esa, har kuni yoki suvdan foydalanishning texnik talabi, suv taqsimlash va nazorat qilish uchun o‘tkaziladi. Muntazam o‘lhashlarni avtomatlashirish birinc

hi navbatda ta’milanishi kerak. Har qanday gidrometrik ishni amalga oshirayotganda texnika xavfsizligi qoidalarining barcha talablarining bajarilishi shart. Suvdan foydalanishga mo‘ljallangan suvni hisobga olish joylarida tekshirish paytida topilgan kamchiliklar, sug‘orish mavsumi boshlanishigacha to‘zatilishi kerak.

Suvdan foydalanish va suvni taksimlanishi tartibi haqidagi kamchiliklar haqida suvdan foydalanuvchilar, xo‘jaliklarning raxbarlari va Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga xabar beriladi.

Suvdan foydalanish rejasida katta kamchiliklar bo‘lganda dololatnomalar to‘ziladi.

### **3.3 Suvni hisobga olish usullari**

Gidromeliorativ tizimining har kanday gidrometrik postida suvni hisobga olish usullari va texnik vositalarni tanalash va foydalanishda kuyidagilariga etibor berish kerak:

- a) o‘lhashlarning meteorologik sharoitlariga;

- b) ob'ekt va tumanning gidrogeologik va gidravlik tavsiflariga;
- v) texnologik va espulatatsion sharoitlarga;
- g) postning tuzilishi va qurilishiga qo'yilgan talablariga;
- d) texnikaviy maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy unumdorligiga.

Suv sarfini bevosita va bilvosita usullar yordamida aniqlash mumkin.

O'lchashlarning bevosita usullari - (xajmiy, tarozli) suv sarflarini nazorat o'lchashlarda, uncha katta bo'limgan suv sarflarida gidromeliorativ tizim ob'ektlardagi suv o'lhash moslamalarini tarirovka qilishda qo'llaniladi.

Amaliyotida suv sarfini aniqlashda asosan bilvosita usullardan foydalaniladi, ular gidromeliorativ tizimni ishlatishning xozirgi sharoiti uchun tavsiya etiladi. Suv sarfini o'lhashning bilvosita usullarini qo'yidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

- a) O'zanli usul.
- b) Gidravlik usul.

v) Kanalda avtomatik doimiy suv sarfini ushlab turilishiga yoki beflarda suv sathini maromlashtirishga asoslangan usul.

- g) Suv sarfini tug'ridan-tug'ri o'lhash usuli.
- d) Aralashtirish usuli.

O'z a n l i u s u l l a r Kanal o'zani kesimi elementlari va suvning oqish tezligi (masalan, «tezlik+maydon» usuli) bo'yicha suv sarfini aniqlashga bag'ishlangan. O'zanli usul o'zan navbatida qo'yidagi suvni hisobga olish usullariga bo'linadi: ko'p nuqtali, ma'nodosh surʼegi chizig'idan  $Q=f(N)$  foydalanish, integratsion va suv oqimining o'zgaruvchan suv sathida suvni hisobga olish usullari.

**G i d r a v l i k u s u l** bo'yicha suvni hisobga olish, o'zan orqali oqib o'tadigan suv oqimini o'tkazadigan tarirovka qilingan suv o'chash inshootlari va moslamalar yordamida aniqlanadi.

**K a n a l d a d o i m i y s u v s a f i n i** (s a t h i n i) s a q l a s h u s u l l a r i yordamida suvni hisobga olishda maxsus rostlaydigan ishootlar, jihoz yoki moslama kanstruksiyasi talab kilinadi, ular avtomatik ravishda doimiy suv sarfini (sathini) ushlab turadilar.

Suv kesimidagi suv sarfini to‘g‘ridan - to‘g‘ri o‘lchash usullari. (Induksion, vibratsion va boshqa usullar) Davlat tomonidan raqamlangan va ishlab chiqarilgan va attestatsiyadan o‘tgan suv sarfini o‘lchash asboblari yordamida aniqlashga asoslangan.

Aralish tirishi usulli o‘zan kundalang kesmi orqali har turli to‘zlar, eritmalar, radiaktiv moddalar buyoqlarni oqizib, kanalning ma’lum oralig‘ida suvning elektr o‘tkazish qobiliyatini o‘zgarishi bo‘yicha suv sarfini aniqlashga bag‘ishlangan.

YUqorida keltirilagan suvni hisobga olish usullaridan qaysi birini qo‘llash suv sarfini o‘lchashdan ko‘zlangan maqsadga, o‘lchash turiga, suv miqdoriga, o‘zanning holatiga, gadravlik sharoitiga, talab qilinadigan o‘lchov aniqligiga va o‘lchash tezkorligiga qarab belgilanadi.

### **Sinov savollari:**

1. Gidrometrik ishlarga nimalar kiradi?
2. Gidrometrik ishlar kanday turga bo‘linadi?
3. Suvni hisobga olishning kanday usullarini bilasiz?
4. SHarshara suv sarfini aniqlashda kaysi usuldan foydalaniladi?

## **IV. SUVNI HISOBGA OLISH VOSITALARI**

### **4.1 Suvni hisobga olish vositalarining guruhlarga bo‘linishi**

Suv sarflarini o‘lchash usullari ga mos keladigan suvni xisobga olish vositalari qo‘yidagi guruhlarga bo‘linadilar:

1. Suv o‘lchagichlar – regulyatorlar - rostlovchi gidrotexnika inshooti. Uning konstruksiyasi tarkibiga suvni hisobga oluvchi asboblar – datchiklar va rostlovchi jihozlar- zatvorlar kiradi.

Ular agar lozim bo‘lsa, suvni hisobga olishni avtomatizatsiya va telemexanizatsiya qilishni amalga oshirish va suvni rostlash imkonini beradi.

2) Suv o‘lchash inshootlari - tranzit suv sarflarini hisobga olish moslamalari, ularga suv tashlamalar, novlar, ostonalar, nasadkalar va boshqa suv o‘lchash moslamalari kiradi. Ular rostlovchi inshootning quyi befida, kanallarning tranzit uchastkalarida, truboprovodlarda va boshqa joylarda o‘rnataladi. Tranzitli suv o‘lchash inshootlari va moslamalari quyi befda joylashgan bo‘lib, ular suv sarfini avtomatik rostlash uchun ham ishlatalilar.

3) Graduirovka qilingan inshoototlari – tutashtiruvchi (sopryagayuvi), tashlama, rostlovchi va boshqa gidrotexnika inshootlari kiradi. Ular orqali o‘tadigan suv sarflari 1 dan 3 gacha o‘zgaruvchan parametrlar (suv sathining chuqurligi, zatvorlarning ochilish balandligi va boshqalar) orasidagi bog‘lanish asosida graduirovka qilinadilar.

4) Professional suv bo‘luvchilar maxsus inshoot bo‘lishi bilan birga inshootga yaqin joydagi umumiy suv sarfini o‘lchash imkonini ham beradi.

5) Ozanli gidrometrik postlarda va nazorat kesimlarida gidropostlar tabiiy yoki o‘zgarmas o‘zanlardan iborat bo‘ladi. Bu postlarda suvning oqim tezligi gidrometrik vertushka yordamida o‘lchanib, suv sarfi analistik

usulda hisoblanadi va nazorat o‘lchovlari orqali suv sarfining suv sathiga bog‘liqligi, ya’ni  $Q=f(N)$  grafigi tuziladi.

Suv sarflarini aniqlash uchun faqat suv sathi kuzatiladi va  $Q=f(N)$  grafigi bo‘yicha suv sarflari aniqlanadi.

6) S u v o‘lch a g i ch – a v t o m a t l a r suv sarfini avtamatik tarzda aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib ular avtoregulyatorlar deb ataladi.

Barcha o‘lhash asboblari namunaviy va ishlovchiga bo‘linadi.

Namunaviy o‘lhash asboblari yukori aniqlik asboblari hisoblanib, ular ishchi asboblarning ishlashini tekshirishda va graduiravka qilishda foydalaniladi.

Ishlovchi (texnika maqsadida foydalaniladigan) o‘lhash asboblariga namunaviylardan tashqari barcha asboblar kiradi. Ular parametrлarni eng kichik yo‘l qo‘yiladigan xatolik bilan o‘lhashda qo‘llaniladi.

Barcha o‘lhash asboblari o‘lhash aniqligi bo‘yicha sinflarga bo‘linadilar. Asbobning aniqligi (asosiy xatolik) asbobning maksimal mutlaq xatoligi bilan tavsiflanadi va foizlarda ifodalanadi:

$$K = \frac{Q_a - Q_i}{Q_{\max}} 100\% \quad (1)$$

bu erda  $Q_a - Q_i = \Delta a_{\max}$ -asbobning maksimal xatoligi;

$Q_a$ - ulchov asbobi yordamida aniqlangan suv sarfi;

$Q_i$ - xaqiqiy suv sarfi;

$Q_{\max}$ - ulchov asbobining eng yuqori, ya’ni maksimal suv sarfini o‘lhash ko‘rsatkichi.

Ekspluatatsion gidrometriya amaliyotida suv sarfini va suv sathini aniqlaganda odatda o‘lhash asbobining mutlaq va nisbiy xatolik tushunchasidan foydalaniladi. O‘lhash asbobining sifati nisbiy xatolik bilan ifodalanadi va u mutlaq xatolikda o‘lchanadigan miqdorining nisbatiga teng.

$$\delta = \frac{Q_a - Q_i}{Q_i} 100\% \quad (2)$$

## **4.2 Suv o‘lchash asboblarining sinfi**

Suv o‘lchash asboblarining sinfi grafik bo‘yicha (3-rasm) va quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\sigma Q_{\text{бонк}} = \sqrt{\sigma_{\text{асбооб}}^2 + \sigma_{\text{унуоом}}^2 + \sigma_{T.y}^2 + \sigma_{\text{покм}}^2} \quad (3)$$

Taqsimlanayotgan suv sarfini yo‘l qo‘yiladigan xatosi turli foyizlarda beriladi va uning yordamida avtoregulyator  $\sigma_{\text{пэз}}$ , tele o‘lchash  $\sigma_m$  suv o‘lchash inshooti  $\sigma_{\text{уну}}$  suvni hisobga oluvchi asbob  $\sigma_{\text{асбо}}$  xolatlari uchun yo‘l qo‘yiladigan xato va shu bilan birga ularning sinfi va x.k.lar aniqlanadi.

3-rasm. Suv sarfining o‘lchash va taqsimlashdagi xatoliklarini unversal grafigi.

## **4.3 Suvni o‘lchash vositalariga kuyilgan asosiy talablar (17-bet)**

Gidromeliorativ tizimidagi suvni o‘lchash vositalari ekspluatatsion, konstruktiv-qurilish va texnikaviy-iqtisodiy talablarga hisobga olgan holda qurilishi kerak. Bu talablarqo‘yidagilardan iborat:

- Suv resurslaridan samarali foydalanishda, suvdan foydalanish rejasini bajarishda, gidromeliorativ tizimda suvni taqsimlashda suvni hisobga olishning avtomatlashtirishni ta’minlash;
- Suv o‘lchash inshootlari va moslamalari konstruksiyasini konstruktiv elementlarga, texnologiyaga va oddiylikga mos kelishiga e’tibor berish;
- Suv o‘lchash moslamalarining universalligi va o‘xshashligi;
- Suv o‘lchash inshootlari kanalning har xil sharoitlarida va rejimda ekspluatatsiya kilinish ishonchliligi, kerakli diopozonni qo‘llanilishi, quyi beef suv sathi rejimiga bog‘likmasligi;
- Suv o‘lchash moslamalarining tashqi omillar ta’siridan muhofaza qilishning oddiyligi va ishonchliligi; asbobni o‘rnatish, ayrim qismlarini almashtirish, avtomatika vositalarni o‘rnatish, ta’mirlash va x.k;

- Gidrometrik ishlarni olib borish va ularni ekspluatatsiya qilish xavfsizligini taminlash;
- Suv o‘lhash inshootlari va asboblar ishiga oqiziqlar qatlami va suvda mavjud ortiqcha narsalar tusqinlik qilmasligi;
- Suv sarfini o‘lchayotganda yul qo‘yiladigan nisbiy xatolik  $\pm 5\%$  dan oshmasligi ta’minlash.

#### **4.4 Suvni hisobga olish vositalarini tanlash, ularni qo‘llash va qayta tekshirish bo‘yicha umumiyl holatlar**

Suvni hisobga olish jixozlarini qo‘llash va qayta tiklash quyida holatlarda amalgao shiriladi:

1. Gidromeliorativ tizimni ekspluatatsiya sharoitlarini yaxshilash zarurati bo‘lganda, mehnat unumdoorligini oshirishda, gidrometrik ma’lumotlarni olishdagi faollikni oshirishda, texnologik jarayonlar sonini soddalashtirish yoki kamaytirishda, avtomatlashtirishni joriy etishda, telemexanika, texnologik jarayonlarini ASUni barpo etish va o‘tkazish hamda gidrometrik ishlardagi texnika xavfsizligi sharoitini ta’minlash zaruriyatida;

2. Suv sarfini hisobga olishda ma’lumotlarning ishonchliligi va aniqligini ta’minlash uchun;

3. Suv olish, suv taqsimlash bo‘g‘inlari joylarini qayta ko‘rishda yoki yangilarini ochishda, suvdan foydalanish tartibi o‘zgarganda va hokazo;

4. Sug‘orish tizimida sug‘oriladigan maydonlarning 10% ga oshishida;

5. Sug‘orish tarmog‘idagi kanallarning FIK 15-30% dan ko‘proq oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilayotganda.

Suv o‘lhash inshootidagi gidrometrik postning sinfi (razryadi) suv sarfining maksimal qiymati bo‘yicha emas, balki suv ta’minotining qabul qilingan foizi bo‘yicha, xavfli suv sarfi miqdoriga, ob’ektning ahamiyatliligi darajasiga, gidrometrik ma’lumotlarning aniqligi va ularni olishni qabul qilinishini tezkorligiga bog‘liq.

Xo‘jaliklararo va xo‘jalik tarmoqlarida rostlovchi gidrotexnika inshootlaridagi suv taqsimlash joylarida muntazam suvni hisobga olish uchun s u v o‘lch a g i ch – r e g u l ya t o r l a r d a n foydalaniladi.

Ular bir vaqtning o‘zida ham suv sarfini o‘lchaydi, ham uni rostlaydi.

Nazorat (suv sarflarini tekshirish) o‘lchovlar olib borishda dublikat tranzit suv o‘lhash inshootlaridan, moslamalaridan va o‘zgarmas (fiksirovannoe) o‘zan suv o‘lhash vositasidan foydalaniladi.

Suv o‘lchagich – regulyatorlarining qo‘llanilishidagi cheklanish faqatgina ular uchun noqulay bo‘lgan gidravlik sharoitda bo‘linishi mumkin. Ma’lum bir gidravlik sharoitda suv o‘lchagich - avtomatlarga afzallik beriladi. Ular doimiy suv sarfini maromlashtiradi va keragida ko‘paytiradi yoki kamaytiradi.

Suv o‘lchagich-regulyatorlar va suv o‘lchagich-avtomatlar tegishli sharoitlarga qarab suv olish va suv ajratish joylarida qo‘llaniladi.

Xo‘jalik ishchi tarmoqlarida birinchi navbatda gidravlik va pnevmogidravlika ta’siridagi doimiy suv sarflarini suv o‘lchagich- avtomatlar qo‘llaniladi.

Elektr va qo‘shma kuchlar tasirida bo‘lgan a v t o m a t i k r e l ya t o r l a r doimiy suv sarflari va suv sathini maromlashtiradi hamda ular magistral kanallarda va xo‘jaliklararo tarmoqlarda qo‘llaniladi. Bunda tarmoq bo‘ylab elektr toki tortiladi.

Gidravlik ta’sirda bo‘lgan yuqori befda o‘rnatilgan d o i m i y s u v s a t x l a r i n i o‘lch a sh a v t o m a t l a r i har xil tarmoqlardagi suv tashlashlar uchun tavsiya etiladilar.

Ishlab turgan tizimlarning bosh taqsimotida odatdagi suv sarfini rostlovchi o‘rnatilgan bo‘lsa, undan qo‘lay gidravlik sharoit mavjudligida avval graduirovkadan o‘tkazib, suv sarfini muntazam o‘lhash uchun suv o‘lchagich sifatida foydalanish mumkin.

Tranzit suv o‘lchagich inshootlar va moslamalar (ostonalar, novlar) suv sarfini hisobga olishi mumkin, lekin ular suv sarfini rostlamaydi. Ular kanallarning bosh qismida o‘rnatiladilar.

Ayrim sug‘orish tizimlarida bir turdagи suv o‘lchash jihozlari, asboblar, avtomatika va telemexanika moslamalari o‘rnatilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

**Sinov savollari:**

1. Gidromeliorativ tarmoqdagi gidrometrik ishlar?
2. Suvni xissobga olish usullari qanday tasniflanadi?
3. Ishlatiladigan vositalar qanday guruxlarga bo‘linadilar?
4. Sug‘orish tizimidagi vostalar qanday tanlanadi va qo‘llaniladi?
5. Vositalarning sinfi qanday aniqlanadi?

## **V. EKSPLUATATSION GIDROMETRIYADAGI SUV SARFINI HISOBGA OLISHNING O'ZANLI USULI**

### **5.1 O'zanli usul mohiyati**

O'zanli usul gidromeliorativ tizimlarini ekpluatatsiyasiga daryo gidrometriyasi amaliyotidan o'tgan. Bu usul asosan sug'orish manbai bo'lgan tabiiy o'zanolarda va kanallarda qo'llaniladi. Bunda suvning chuqurligi gidrometrik asboblar bilan, suvning oqish tezligi esa gidrometrik vertushka yordamida o'lchanadi.

O'zanli postni o'rnatiladigan joyi daryo gidrometriyasida ko'rsatilgan umumiylar qoidalar asosida tanlanadi.

Suvni hisobga olishning o'zanli usulida asosan suv o'lhash reykasi bilan jihozlangan postlar qo'llaniladi, chunki ular sun'iy kanallar tuzilishiga juda to'g'ri keladi. Sug'orish manbai bo'lgan daryolar va suv omborlarida reykali postlardan tashqari svayli postlar ham uchraydi.

O'zanli usulning mohiyati shundan iboratki suv oqimining sarfi bevosita o'lchangan suvning oqim tezligi va suvli maydon o'lchamlari asosida aniqlanadi. O'zanli usulda muntazam suv sathi va suv sarflarini o'lhash asosida belgilangan bog'lanish tuziladi. Suv sarflari va suv sathlari o'rtasidagi bunday bog'lanish  $Q=f(H)$  tuzib olingandan so'ng, keyingi yil mavsumida faqatgina nazorat suv sarflarini o'lhash bilan (har dekadada bir marta) chegaralanadi. Vegetatsiya davrida suv sathlari har kuni (sutkasiga 3 marta) kuzatilishi shart, chunki ular asosida o'rtacha kunlik suv sarfining miqdori  $Q=f(H)$  bog'lanishidan topiladi.

SHunday qilib, o'zanli usul bo'yicha suvni hisobga olishda quyidagi ishlar bajariladi:

1. Dastlabki  $Q=f(H)$  bog'lanishni tuzish uchun o'zan stvorida kamida 8 marta suv sarflari va suv sathlarini parallel o'lchanadi.
2. Keyingi yillarda nazorat (vaqt - vaqtida) o'lchovlar orqali tuzilgan bog'lanishga aniqlik kiritiladi va nisbiy xatolik yuqori bo'lsa yangi bog'lanish tuziladi.

Ekspluatatsion gidrometriyaning gidrometrik postida suv sarfini o‘lchash bo‘yicha ishlardan maqsad sarflarning sathlarga bog‘liq egri chiziqni tuzish va tuzatmalarni kiritishdir. Bu ishlar postning darajalash (graduirovksi) deb ataladi.

3. Tuzilgan  $Q=f(H)$  bog‘lanish asosida suv sathlari qiymatiga to‘g‘ri kelgan suv sarflari tushirilgan koordinitalar jadvali tuziladi. Bunday jadval har bir gidrometrik post uchun alohida tuziladi (1-jadval).

1-jadval. Gidropost uchun suv sarfini suv sathiga bog‘liq koordinatalar jadvali.

N, sm	Suv sarfi, $m^3/s$									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
10	0,65	0,73	0,81	0,88	0,94	1,00	1,06	1,12	1,19	1,26
20	1,33	1,4	1,46	1,53	1,6	1,67	1,74	1,82	1,9	1,97
30	2,03	2,1	0,17	2,25	2,33	2,4	2,48	2,56	2,64	2,82
40	2,80	2,88	2,96	3,05	3,13	3,22	3,3	3,38	3,47	3,56
50	3,66	3,74	3,84	3,94	4,05	4,15	4,25	4,35	4,46	4,56
60	4,66	4,76	4,87	4,98	5,09	5,2	5,31	5,42	5,53	5,64
70	5,75	5,75	5,87	5,98						

Gidrometrik postni darajalash (graduirovka) bajarilishi orqali  $Q=f(N)$  egri chizig‘i tuzilgandan so‘ng, vaqt – vaqt bilan nazorat o‘lchovlari (suv sarfi va suv sathi) o‘tkazib turish kerak. O‘zgarmas o‘zanli uchastkalarda sarflarning sathlarga bog‘liq egri chizig‘ini mavsum davomida 3-4 marta tekshirish kerak. Bu tekshiruvlarda oqim tezligi albatta gidrometrik vertushka yordamida olib boriladi.

O‘zan yuviladigan va loyqa bosadigan bo‘lsa, yoki suvning dimlanishi kuzatilsa, suvni hisobga olish aniqligi ancha pasayadi. SHu sababli bunday joylarda suv sarfi haftasiga 1-3 martadan o‘lchab turiladi. Ammo o‘zan turg‘un bo‘limgan postlarda bunday o‘lchovlar ham o‘lchash aniqligini oshirmaydi.

Suv sathini kuzatish ishlari, sarflar egri chizig‘i  $Q=f(N)$  mavjud postning nima maqsadda qurilganligiga qarab va oqim rejimining xususiyatiga ko‘ra belgilanadi. Masalan, sug‘orish manbaida suv sathi butun sug‘orish (vegetatsiya)davrida har kuni va ayrim hollarda (misol uchun, qishki sho‘r

yuvishda) butun yil davomida, muntazam ishlamaydigan sug‘orish tarmog‘ida esa faqat ish davomida suv satxi kuzatiladi.

Sug‘orish manbai bo‘lib suv ombori xizmat qilganda suvning xajmi va suv omborini to‘ldirish chuqurligi (yoki suv omboridagi suv sathi) o‘rtasida bog‘lanish ( $W=f(H)$ ) egri chizig‘i tuziladi. Bunda suv omborining sathi suv sathini o‘zi yozgich asbob yordamida ko‘zatilsa, bu ma’lumotlar asosida har qanday muddat uchun suv omborining hajmini aniqlasa bo‘ladi.

## **5.2 Gidrometrik post o‘rnini tanlash, uning tuzilishi va jihozlanishi**

Gidrometrik postdagi bevosita suvni hisobga olib borilayotgan joy, ya’ni ko‘prikli suv o‘lhash moslamasi gidrostvor deb ataladi. O‘lhashlar olib borilayotgan gidrostvor o‘rnini tanlash, vertikallarni joylashishi va oqim tezligini o‘lhash nuqtalari gidrometrik ma’lumotlarning talab qilinadigan aniqlikni ta’minlanishi qoidalariga mos kelishi kerak. Gidrometrik postda suv sarfini o‘lhash ishlari har doim suvni hisobga olish talablari va gidravlik sharoitlari bo‘yicha javob beradigan maxsus gidrostvorda olib boriladi.

Suv sarflari va suv sathlari o‘rtasidagi bog‘lanishni  $Q=f(N)$  ta’minalash uchun o‘zanning tanlangan qismi qo‘yidagi talablarga javob berishi kerak:

- O‘zanning tubi va qirg‘oqlari tabiiy gruntu dan iborat bo‘lsa, ular etarli darajada turg‘un bo‘lishi kerak. O‘zanning turg‘unligi ko‘p holatlarda umumiyl belgilar asosida (yon bag‘ir va qirg‘oqlarining tashqi ko‘rinishi, kanal o‘zanining loyqa oqiziqlaridan tozalanganligi haqida ma’lumot va boshqalar) baholanadi;
- Gidropost joyi kanalning qo‘yi qismidagi rostlovchi, damlovchi inshoot yoki bo‘lmasa oqimining suv rejimi o‘zgarishi ta’sirida bo‘lmasligi kerak;
- O‘zanning tubi va yon devorlari o‘simliklardan xoli bo‘lishi kerak;
- Gidrometrik postning barcha qismida qirg‘oqlar to‘g‘ri va bir – biriga parallel, to‘g‘ri ko‘ndalang kesimga, o‘zan tubi esa bir hil nishablikga ega bo‘lishi kerak;


- Gidrometrik post o‘rnatilgan qismining umumiy uzunligi keng daryolarda (100 m ko‘p), o‘zanning yuqori qismi eniga (V) nisbatan, o‘rtacha va kichik daryolarda (2-6)V, kanallarda esa (4-10)V dan kam bo‘lmasligi kerak;
- Gidrometrik post joyi yaqinida uning tabiiy rejimiga ta’sir ko‘rsatuvchi inshootlar (ko‘prik, nasos moslamalari, suv chiqaruvchi joylar va boshqalar) bo‘lmasligi kerak;
- Gidrometrik postdan yuqori va qo‘yi joylarda suv oqimining parallel oqishiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zanning burilishlari bo‘lmasligi kerak;
- Gidrometrik post joyi kuzatuvlarni olib borishga, uning jihozlarini ta’mirlash uchun qulay bo‘lishi kerak.

Gidrometrik post o‘rmini tanlash vizual kuzatuv orqali suvning chuqurligini va masofani o‘lchab, po‘kaklar harakatini ko‘zatish orqali olib boriladi.

Tanlangan joyning plani va balandlik holatlari topografik reperlar (mutloq va nisbiy balandlik belgilar) bilan belgilanadi.

Gidrometrik postning balandlik belgilari yaqin joylashgan reperlar tizimi yordamida aniqlanadi va yillar davomida doimiy hisoblanadi.


Gidrostvordagi doimiy vertikallar joyi gidrostvor chizig‘i bo‘yicha qirg‘oqlarni, yonbag‘irlarni va o‘zan tubini nivelirovka qilish natijada belgilanadi. (3-rasm).



4-rasm. Tabiiy o‘zandagi gidrometrik postni vertikallarga bo‘lish.

Vertikallar soni kanalning eniga bog'liq holda bir-biridan bir xil masofada joylashadi. Masalan, ko'ndalang kesimning eni 3da 5m gacha bo'lganda vertikallar soni 4-5 ta, 5 dan 10m gacha bo'lganda 5-7 ta: 10 m va undan keng bo'lganda 7-10 ta vertikallardan iborat bo'ladi. Vertikallarning tartib raqami qirg'oqda mahkamlangan doimiy (nol) nuqtadan boshlanadi.

Gidrostvor bo'y lab harakat qilish uchun maxsus gidrometrik ko'priki, parom va po'lat simlarga osilgan ko'priki yoki lyulka(osma belanchak), shu bilan birgalikda qirg'oqdan turib boshqariladigan gidrometrik moslamalar o'rnatiladi. (5-rasm)



5-rasm. Gidrometrik postlar (a- lyulkali, b-paromli, v-distonsion moslamalari)

Ekspluatatsion hidrometriyaning o'zanli postlari ni jihozlash. Ekspluatatsion hidrometriyaga tegishli postlarda qulaylik bo'lishi uchun xuddi daryo hidrometriyasidagi postlarday jihozlanadi.

Suvni hisobga olishda o‘zanli usulining takomillashgan ko‘rinishi-o‘zgarmas o‘zanning barpo etilishidir. Bunda suv manbaining bosh qismida gidropost o‘rni ma’lum shakl bo‘yicha betonlanadi (odatda 15 metrli oraliq). Bu erda kuzatishlar xuddi o‘zanli usuldagidek olib boriladi. Sarflar egri chizig‘i bunday stvorlar uchun turg‘un. Beton yotqizilgan bunday uchastkalar graduirovka qilingan hisoblanadi va o‘lchov moslamasi sifatida foydalanish mumkin.

Gidrometrik postning jihozlanishiga qarab, gidrometrlar o‘lchov ishlarini olib borayotganda mehnat xavfsizligi qoidalariga amal qilishlari kerak.

### **5.3. Suv sathini o‘lhash postlari va ularni jihozlash**

Gidrometrik postda suv sathini kuzatish suv sarflari va suv sathlari o‘rtasidagi bog‘lanishni tuzish maqsadida olib boriladi. SHuning uchun suv sathini o‘lhash postining joylashishi uchun uni tanlashga va jihozlashga katta e’tibor beriladi.

Suv sathini kuzatishga mo‘ljallangan post joylashishi quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- Suv sathini aniq o‘lhash, post o‘rnatilgan joyda suv oqimi rejimi turg‘un bo‘lmasligi sababli suv sathining o‘zgarib turishi (to‘lqinlar, suvning aylanma harakati, oqimning jo‘shqin harakati va boshqalar);
- Kuzatishlarni olib borishda qulay, moslamalarni ta’mirlash;
- Jihozlarni buzilishiga olib keladigan suzib yuruvchi narsalardan, qirg‘oqlarning nurashidan, muzlanish xolatlari va boshqalardan saqlash.

Suning sathi quyidagilar yordamida kuzatiladi: belgilangan muddatlarda mahsus suv o‘lhash reykalari; suv sathini ko‘rsatkichlari yordamida; suv sathini o‘lchovchi o‘zi yozgichlar (samopisets); telemexanik va masofadan turib nazorat qilish datchiklari orqali.

Tabiiy o‘zanlarda odatda suv o‘lhash reykasi kanalning qirg‘oq qismida qoqilgan svay (qoziq)ga mahkamlanadi. Bunday moslama suvning oqish tezligi 0.7-1.0 m/s bo‘lganda qo‘llaniladi.

Kichik ariq va kanallarda suvning oqim tezligi juda katta bo‘lganda, odatda, reyka qirg‘oqda maxsus tayyorlangan cho‘michsimon joyga o‘rnatiladi. Kanal

qirg‘oqlari yassi bo‘lganda xilma-xil suv sathlarini kuzatiish uchun reyka bir qator qilib o‘rnataladi. (5- rasm, a).

Kanal va daryodagi suvning chuqurligi 2-2,5m dan ko‘p bo‘lganda zavodda tayyorlangan dengiz reykalarini o‘rnataladi.(5- rasm, b).

Suvning sathi suv o‘lchash reykasi yordamida 1 sm aniqlikda kuzatiladi. Reykadagi bo‘linmalar sifatli bo‘yoq, emal bilan bo‘yaladi yoki bo‘rtirib belgilanadi. Tabiiy o‘zanlarda suvning sathi balandligi shartli gorizontal tekislikda joylashgan “post noliga” nisbatan olinadi.

Odatda reyka noli va post noli (“0” grafik) ning balandligi ba’zi hollarda bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi.

Beton bilan qoplangan kanallarning reyka “nol”-i kanal tubi bilan bir xil sathda o‘rnataladi va “0” grafikni belgilashga xojat qolmaydi.



5-rasm. SANIIRIning suv o‘lchash ostonasi.  
a) bo‘ylama kesim, b) plan

## **VI. TRANZIT(otvodlar) SUV SARFINI HISOBGA OLİSH UCHUN QO'LLANILADIGAN SUV O'LCHASH INSHOOTLARI VA MOSLAMALARI**

### **6.1. Tranzit suv o'lchagichlar haqida tushuncha**

Tranzit suv o'lchagichlarga faqat tranzit suv sarfini hisobga olishga mo'ljallangan maxsus inshootlar va moslamalar kiradi. Ular suv o'lhash ostonalari, novlar, vodoslivlar va nasadkalardir.

Tranzit suv o'lchagichlar shakli va xisobli o'lchamlari bo'yicha standart va namunaviy konstruksiyaga javob beradigan suv o'lhash inshootlari va nasadkalar kiradi.

Tranzit suv o'lhash inshootlari va moslamalarini joylashtirish uchun joy tanlashda o'zanli gidropostlarga ta'alluqli qoidalarga amal qilinadi.

Tranzit suv o'lchagich rostlovchi inshootdan pastda joylashgan bo'lib, qo'yidagi shartlarga amal qilinishi lozim: suv o'lchagich shunday joylashtiriladiki, yuqorida joylashgan rostlovchi inshootning quyi b'efida ko'milgan holat ko'zatilmasligi kerak.

Quyida eng ko'p tarqagan tranzit suv o'lhash inshootlari va moslamalarining konstruksiyasi keltirilgan.

### **6.2 SANIIRI suv o'lhash ostonasining asosiy parametrlari**

SANIIRI suv o'lhash ostonasi suv sarfi  $60 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha bo'lgan ochiq kanallarda suvni o'lhash uchun mo'ljallangan bo'lib, o'zani o'zgaruvchan, quyi b'efda suv olish rejimi o'zgaruvchan-dimlangan holatda bo'lgan hamda suvning tushishi erkin va qisman erkin bo'limgan hollarda qo'llaniladi.

Ostona tahminan 10....20% dimlanish (podpor) hosil qiladi.

SANIIRI suv o'lhash ostonasining chuqurligi uncha katta bo'limgan kanallarda ishlatish tavsiya etiladi, ya'ni


$$h_k \leq \frac{b_k}{4} \quad \text{shart bajarilganda}$$

bu erda:

$b_k$ - kanal tubinig eni.

O'lchash xatoligi suv sarfining o'zgarish oralig'i, ya'ni maksimal suv sarfining  $Q_{\max}$  minimal suv sarfiga  $Q_{\min}$  bo'lgan nisbati 6-8 dan oshmaganda qo'llash imkoniyati mavjud:  $\frac{Q_{\max}}{Q_{\min}} \leq 6 \dots 8$  shart bajarilganda o'lchash xatoligi  $\pm 5\%$  dan oshmaydi.

SANIIIRI suv o'lchash ostonasi bilan jihozlangan suv o'lchash posti quyidagilardan iborat: kanalning betonlangan qismidan, amaliy profilli vodoslivdan, yuqori b'efda o'rnatilgan sath o'lchovchi reykadan, ostonaning suv bilan ko'milish darajasini  $h_n$  o'lchaydigan kuzatish reykasidan iborat.



6-rasm. SANIIIRI suv o'lchash ostonasi.

a) bo'ylama kesim, b) plan

Kanal ishlamayotgan (ta'mirlash) davrida, yuqori b'efni suvdan bo'shatish uchun ostona tagiga diametri 100 mm dan kam bo'lmagan bir yoki ikkita quvur

yotqiziladi. SANIIRI suv o'lhash ostonasining ishlash jarayonida ular quyi b'ef tomonidan berkitib qo'yiladi.

SANIIRI suv o'lhash ostonasining yuqori va quyi b'eflarini mustahkamlangan qismlarining o'lchamlari qo'yidagi  $L_k \geq 10 \dots 15d_k$  bo'lishi lozim.

bu erda:

$L_k$ - ostananing bosimli yon tomonidan sath o'lhash qudug'igacha bo'lgan masofa;  $d_k$  - sath o'lhash qudug'ining diametri.

YUqori b'efni mustaxkamlangan qismining uzunligi qo'yidagi oraliqda bo'lishi lozim:

$$L_{\text{lo6}} > H_k + L_k \geq d_k$$

bu erda:

$N_K$ - kanalning maksimal dimlangandagi chukurligi (m), shunga mos ravishda ostananing uzunligi ushbu oraliqda tanlanadi:

$$L_o = (3.8 \dots 4.8) R_0$$

bu erda:

$R_o$ -ostananing balandligi, m

$$P_o = 0.6 h_{\max}$$

Quyi b'efning mustahkamlangan qismining uzunligi qo'yidagicha aniqlanadi:

$$L_{\text{k6}} \geq (5 \dots 7) H_k$$

SANIIRI suv o'lhash ostonasidan o'tayotgan suv sarfi qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = \left( 0.37 + 0.4 \frac{H}{P_o} \right) (b_0 + m_k H) H \sqrt{2g} N \quad 6.1$$

bu erda:

$0.37 + 0.4 \frac{H}{P_o}$ -suv sarfi koeffitsienti (S);

$b_0$  - ostona kengligi;  $b_0 = b_k + 2m_k P_0$ ;

$b_k$  - kanal tubining kengligi;

$m_k$  - kanalning qiyalik koeffitsienti.

SANIIRI suv o'lhash ostonasida o'lchovlarini amalga oshirish uchun qo'yidagi parametrlardan foydalaniladi: oqimining kundalang kesim yuzasi; suv sarfining o'zgarish oralig'i ( $Q_{\max}$ ,  $Q_{\min}$ ) hamda kutilayotgan loyqalanish va dimlanishlarni hisobga olgan holdagi maksimal  $h_{\max}$  va normal  $h_n$  chuqurliklari.  $b_k$ ,  $m_k$ ,  $b_0$  larning qabul qilingan qiymatlarida ostona balandligini  $R_o = 0.6 h_{\max}$  ifodasi yordamida hisoblab, (6.1) ifoda yordamida hisoblangan maksimal suv sarfi  $Q_{\max}$  orqali kerakli dimlanish sathi aniqlanadi. Agarda nisbiy suv toshish miqdori  $\frac{P_o}{H} < 0.75 \dots 0.8$  oraliqda bo'lsa, hisoblash tugatilgan deb qabul qilinadi. Aks holda,  $R_o$ -ni kamaytirish yoki oshirish orqali hisoblash takrorlanadi va SANIIRI ning suv o'lhash ostonasining o'lchamlari qabul qilinadi.

SANIIRI suv o'lhash ostonasini qurish va foydalanishda qo'yiladigan talablar.

1. SANIIRI suv o'lhash ostonasini qurishda kanalning tegishli qismi belgilanadi va beton yoki taxta (plita)lar bilan qoplanadi.
2. YUqori va quyi b'efdagi reykalarining "nol" belgilari bir xil (bir biriga mos) bo'lishi ta'minlanadi hamda ular ostona yuqori qismining belgisi bilan moslashtiriladi.
3. Ostona o'lchamlari: ostonaning kengligi 0,3m dan kattta va 3m dan kichik, ostonaning balandligi 0,15m dan oshmasligi, minimal chuqurlik 0,08 m bo'lishi, kanal chuqurligining ostona balandligiga bo'lgan nisbati 2 dan oshmasligi va ostona kengligining ostona balandligiga nisbati 2 dan kichik bo'lmasligi kerak, ya'ni

$$0.3 < b_0 < 3_m; P_0 \leq 0.15_m; h_{min} = 0.08_m; \frac{h}{P_0} \leq 2; \frac{P_o}{P} \geq 2$$

4. Ostona kengligi  $b_0$  o'lchamining xatoligi  $\pm 0.5 \%$  dan, qolgan o'lchamlari  $\pm 1 \%$  dan oshmasligi kerak.
5. SANIIRI suv o'lhash ostonasidan foydalanishda ostona kengligi  $b_0$ , kanal qiyalik koeffitsienti  $m_k$ , ostona balandligi  $R_o$  o'lchamlari amaldagi o'lchamlari bilan tekshirib ko'rish kerak, reykalar "nol" grafiklari ostona belgisi bilan mosligi

tekshirib ko‘rilishi kerak. Agarda yuqoridagi shartlar qoniqorli bo‘lmasa suv sarfini hisoblash uchun (6.1) ifodaga haqiqiy o‘lchamlar kiritiladi.

$b_0$ ,  $m_k$ ,  $b_0$  larning o‘lchamlari to‘g‘ri bajarilgan holda SANIIRI suv o‘lchash ostonasini individual graduirovkalash shart emas. Faqat hisoblashlar hamda xatoliklarning ishonchlilagini aniqlash uchun vegetatsiya davrida suv sarfi bir necha marta o‘lchanadi va (6.1) formula orqali tekshiriladi.

### 6.3 SANIIRI suv o‘lchash novi

Suv o‘lchash novining asosiy o‘lchamлari hamda suv o‘tkazish qobiлиyatи.

Suv o‘lchash novi ochiq kanallardagi suv sarfi  $2 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha bo‘lganda qo‘llaniladi.

2-jadvalda SANIIRI suv o‘lchash novining asosiy o‘lchamlari keltirilgan.

2-jadval. Nov chiqish qismining kengligiga bog‘liq holda novlarning o‘lchamlari va suv o‘tkazish qobiliyati

Novning o‘lchamlari	Nov chiqish qismining kengligi $b_1$							
	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	1,0
Nov kirish qismining kengligi $B_l = 1,70 b_1$	0,34	0,51	0,68	0,85	1,02	1,19	1,36	1,76
Nov uzunligi $l=2b_1$	0,4	0,6	0,8	1,0	1,2	1,4	1,6	2,0
Nov vertikal devorning balandligi $Nl=(1,5-2) b_1$	0,4	0,65	0,7	0,8	0,9	1,0	1,2	1,5
Ostonaning balandligi $R \geq 0,5$ $H_{\max}(H_{\max} < Nl)$	0,16	0,26	0,28	0,32	0,40	0,40	0,40	0,50
Suv sarfi, $\text{m}^3/\text{s}$	0,051	0,157	0,286	0,555	0,916	1,064	1,217	2,140
Suv oqimining chuqurligi $N_{\max}, \text{m}$	0,25	0,40	0,50	0,65	0,80	0,80	0,80	1,0

Suv sarfi ni o‘lchash. Novdan o‘tayotgan suv sarfi suv erkin oqib tushadigan hollarda ushbu ifoda orqali aniqlanadi:


$$Q = \left( 0.5 + \frac{0.109}{6.26H+1} \right) \theta_x H \sqrt{2g} N \quad (6.2)$$

buerda:

$\theta_x$  - nov chiqish kesimining kengligi, m

N - nov ostonasidagi bosim, m

Q - suv sarfi,  $m^2 / s$



7-Rasm. SANIIRI suv o‘lchash novi

3-jadvalda novning chiqish qismini eniga nisbatan (6.3) ifoda orqali hisoblangan suv sarflarining qiymatlari keltirilgan.

3-jadval

SANIIRI novidan erkin oqib tushayotgan suv sarfi jadvali (l/s)

Oqimning chuqurligi, N (sm)	Nov chiqish qismining kengligi, B <sub>1</sub> (sm)						
	20	30	40	50	60	70	80
4	3,1	4,8	6,4				
6	5,5	8,2	10,9	13,6	16,2	19,1	21,8
8	8,6	12,9	17,2	21,4	25,7	30,0	34,2
10	12,1	18,2	24,2	30,2	36,3	42,3	48,4
12	16,1	24,2	34,2	40,2	48,3	56,0	64,0
14	20,4	30,6	40,7	51,0	61,0	71,0	81,0
16	25,4	38,0	51,0	63,0	76,0	88,0	101,0
18	30,4	45,5	61,0	76,0	91,0	106,0	122,0
20	35,8	54,0	72,0	89,0	107,0	125,0	143,0
25	51,0	76,0	102,0	127,0	153,0	178,0	203,0
30		100,0	134,0	163,0	212,0	248,0	283,0
35		128,0	170,0	213,0	256,0	298,0	341,0
40		157,0	210,0	262,0	314,0	366,0	419,0
45			252,0	314,0	377,0	440,0	502,0
50			296,0	370,0	444,0	518,0	592,0
55				429,0	515,0	600,0	685,0
60				490,0	589,0	687,0	785,0
65				555,0	665,0	777,0	887,0
70					745,0	870,0	993,0

(6.2) ifodani soddarоq quyidagicha kurinishda yozish mumkin

$$Q=2,14v_l N^{1.55} \quad (6.3)$$

bu erda:

$v_l$ , N-mos ravishda suv o'tkazgichning parametrlari (m).

C u v o' l c h a s h n o v i g a b o' l g a n t a l a b l a r:

1. Novning konstruksiyasi va uni o'rnatilishi vaqtiga bilan kuzatish (ko'rikdan utkazish )ga xalaqit bermasligi va RDP -99-77 qoidalari talablariga javob beradigan bo'lishi kerak.
2. Kanal tubining eni 600 mm dan kichik bo'lganda SANIIRI ning suv o'lhash novlarining zavodda yasalgan konstruksiyalaridan foydalanib o'rnatish tavsiya qilinadi.
3. Nov yon tomonlarining tik chiziqqa nisbatan og'ishi devorlarning xar 1 metriga ± 2 mm dan oshmasligi kerak.


4. Novning tubi gorizontal bo‘lishi kerak.
5. Novning yuqori b’ef tomonida ostonasi bo‘lmasligi mumkin.

#### 6.4 Parabolik novlar

Irrigatsiya tarmoqlarida LR-40; 60; 80; 100 turdagи parabolik novlar ko‘p tarqalgan. Bu turdagи suv o‘tqazuchi inshootlarni “O‘zgarmas o‘zan” turidagi suv o‘lchash vositasiga tenglashtirsa bo‘ladi. Bunday novlarda suv sarfining hisobi novlarning  $Q=f(H)$  suv sarfi xarakteristikasini darajalash orqali aniqlanadi

Parabolik novni qo‘llash shart-sharoitlari:

Standart parabolik (LR-40, LR-60, LR-80 va LR-100) novlar ichki tarmoqlardagi suv sarfi 500 l/s gacha xollarda qo‘llash uchun mo‘ljallangan (8-rasm).



8--rasm. Graudirovkalangan parabolik nov  
1-novlarning tutash chizig‘i; 2-nov sekxiyasi; 3-gidrometrik stvor; 4-ko‘prikcha; 5-shtok-reyka; suv o‘lchash reykasi; 1,2,3 vertikallar

#### No v n i n g t u z i l i s h i v a j i h o z l a n i s h i

Graduirovkalangan parabolik novlar suv sarfini muntazam o‘lchash uchun graudirovkalangan va jihozlangan suv o‘lchash posti hisoblanadi. Graduirovkalangan parabolik nov sekxiyasi (2); suv oqimi chuqurligini ( $N$ ) va tezliigini ( $V$ ) o‘lchash stvori (3); ko‘prikka (4) qo‘zg‘almas qilib mustahkamlangan shtok-reyka (5); novning yon devoriga o‘rnatilgan bukilgan sath o‘lchash reyka (6) lardan iborat. Tanlangan va unga tutashgan nov sekxiyalari bir xil nishablikda bo‘lishi kerak.

N o v n i d a r a j a l a s h (g r a d u i r o v k a l a s h): Novdan o‘tayotgan suv sarfining novdagi suv sathiga bog‘liq  $Q=f(H)$  egri chizig‘ini tuzish va uning qiymatlarini jadval ko‘rinishida olish uchun  $Q_{min}$  dan  $Q_{max}$  gacha diapazonda uch vertikalda gidrometrik vertushka yordamida suv sarfi o‘lchanadi (8-rasm). O‘lchangan natijalarni tekshirish va taqqoslash uchun o‘rta vertikalda bir nuqtali usul orqali suv sarfini o‘lhash qo‘llaniladi.

B i r n u q t a l i u s u l o r q a l i d a r a j a l a s h.  $Q = f (H)$  egri chizig‘ini va uning qiymatlarini jadval ko‘rinishida olish uchun parabolik novning jihozlangan stvorida  $Q_{min}$  dan  $Q_{max}$  oraligida 5-7 xil suv sarflarini gidrometrik vertushka yordamida o‘lchanadi. O‘lchov ishlarini SANIIRI-ning tezkor bir nuqtada oqim tezligini o‘lhash usuli bilan olib borish qulayroq.

Bu usul bo‘yicha suv sarfini aniqlash uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$Q=K \cdot h^{2/3} \sqrt{2P * h} \cdot V_{0.6} \quad (6.4)$$

bu erda: K – doimiy koeffitsient,

R – parabolaning perimetri, LR–40; 60; 80 lar uchun R = 0,2, LR–100 uchun R = 0,35.

$V_{0.6}$ - novning eng chuqur o‘qi tikligida, suv sathidan 0,6\*h chuqurlikdagi oqim tezligi, m/s (7.1-rasm).

SANIIRI-da o‘tqazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida K-ning qiymati aniqlangan va LR–40; 60; 80 novlar uchun K = 0,565, LR–100 novi uchun esa K = 0,59

K- koeffitsientini hisobga olgan holda (6.4) ifoda LR–40, 60, 80 novlari uchun quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$Q=0,715 \cdot h^{2/3} \sqrt{h} \cdot V_{0.6} \text{ l/s} \quad (6.5)$$

LR –100 novi uchun:

$$Q=0,99 \cdot h^{2/3} \sqrt{h} \cdot V_{0.6} \text{ l/s} \quad (6.6)$$

Bu ifodalar orqali topilgan qiymatlar asosida novning  $Q = f (H)$  graduirovka xarakteristikasi chiziladi.


Novdan o‘ta yotgan suv sarfini aniqlash va unni shlatish.

Suv sarfini aniqlash novdagi suv oqimining shtok-reyka bilan o‘lchangan chuqurligi ( $N$ )ning qiymati bo‘yicha, oldindan tuzilgan  $Q=f(N)$  jadvali orqali aniqlanadi.

Novdagi suv oqimining chuqurligini o‘lchash uchun shtok-reyka novning tubigacha tushiriladi va ko‘prikning qirrasiga mo‘ljallab xisob olinadi, so‘ng shtok-reyka novdagi suvning sathiga tenglashtiriladi va ko‘prikning qirrasiga mo‘ljallab xisob olinadi. Olingan xisoblarning farqi novdagi suv oqimining chuqurligini tashkil etadi.

Ekspluatatsiya davrida quyidagilarga etibor berish lozim:

- nov tubini loyqa va o‘simliklardan tozalab turish;
- stvor va undagi ko‘prikni o‘rnini saqlab qolish;
- muntazam gidrometrik vertushka yordamida nazorat o‘lchovlari olib borish orqali  $Q = f(H)$  sarf xarakteristikasini tekshirib turish.



9- rasm. Parabolik novlarda oqim tezligini o‘lchash nuqtasi

Suv sarfining qiymatlarini reyka ko‘rsatgichi bilan bog‘lab  $Q=f(H)$  jadvalini tuzib foydalanish ham mumkin. Novdan foydalanilganda ularni loyqadan va o‘simliklardan tozalash kerak.

## 6.5 Suv o‘tkazgichlar-vodoslivlar

Vodoslivlarning turlarini va o‘lchovlari: vodoslivlarning turlari juda ko‘p. Ularning ichida eng oddiy, qulay hamda eng ko‘p tarqalganlari yupqa devorli vodoslivlardir.

YUpqa devorli vodoslivlarni 3-4 mm qalinlikdagi yassi temirdan yasalgan turlari tavsiya qilinadi;

- Uchburchaksimon Tomson vodoslivi (10- rasm).
- Trapetsiyasimon CHipoletti vodoslivi 11-rasm).
- Trapetsiyasimon Ivanov vodoslivi (12-rasm).

CHipoletti vodoslivlarining VCH-25 , VCH-50, VCH-75 va hokazo turlari mavjud.

Ivanov vodoslivlarining – VI-25, VI-50, VI-75 va hokazo turlari mavjud.

Bu erda keltirilgan 25, 50, 75 raqamlari vodosliv ostonasi kengligining santimetrdagi qiymatlarini bildiradi.


V o d o s l i v l a r n i q o‘ 1 l a sh sh a r t sh a r o i t l a r i : YUpqa devorli vodoslivlar ochiq kanal va ariqlarda, ulardan (yani vodoslivlardan) suv erkin oqib tushish sharoitida, kanalning pastki befidagi suv sathi vodosliv ostonasidan 5-6 sm past bo‘lganda ishlataladi. Bunda suv sarfining eng ko‘p (maksimal) miqdorini eng kam (minimal) miqdoriga bo‘lgan nisbati 6 dan ko‘p bo‘lmasligi kerak, yani

$$\frac{Q_{\max}}{Q_{\min}} \leq 6$$


Suv sarfini o‘lchashdagi xatolik  $\pm 2-3 \%$  dan oshmasligi kerak. CHipoletti vodoslivi devoridan oqib tushayotgan suv oqim yuzasi vodosliv oldidagi suv oqimi yuzasiga bo‘lgan nisbati 1:4 dan oshmasligi kerak.

Suv oqimining yuqori b’efdagi tezligi 0,5 m/sek dan oshmasligi kerak, aks holda yuqori bef kesimi kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi Vodoslivdan erkin oqib tushayotgan suv oqimi tagiga havo bemalol kirishi kerak.


Ish jarayonida yuqori b’efning dimlanishi natijasida birlamchi chuqurlikka nisbatan 1,5- 2 marta katta chuqurlik hosil bo‘ladi va suv oqim tezligi 30-60% gacha kamayadi. Vodosliv ostonasi oldida cho‘kindilar hosil bo‘ladi.




**10-rasm. Tomson vodoslivi.  
1-kanalning kesimi, 2-sath o'lchash reykasi**



**11-rasm. Chiopletti vodoslivi  
1-kanalning kesimi, 2-sath o'lchash reykasi**



**12-rasm. Ivanov vodoslivi  
1-kanalning kesimi, 2-sath o'lchash reykasi**



**13-rasm. Suv o'lchash punkti**

Suv sarfini yuqori aniqlik (xatolik 2...3%) da o'lchash shartlari:

$$P \leq H_{\max}; 0,1 < H < 0,3b; \frac{Q_{\max}}{Q_{\min}} \leq 6; t=1\text{mm}$$

bu erda:

$R$  – ostonaning balandligi, m ;

$N_{\max}$  – suv oqimining maksimal chuqurligi, m;

$H$  – suv oqimining chuqurligi, m;

$b$ - vodosliv ostonasining kengligi, m.

- asosiy o'lchamlar ( $\alpha, \beta$ ) ning xatoligi  $\pm 1\%$  dan , qolgan o'lchamlariniki  $\pm 2\%$  dan oshmasligi kerak;
- suv sathini o'lhash reykalar standart bo'lishi, o'rnatilganda esa, uning "0" sathi vodosliv ostonasining sath belgisi bilan bir xil bo'lishi kerak;
- vodoslivning suvni kesuvchi qirralari to'g'ri, tekis, toza va silliq bo'lishi kerak, ushbu talablar payvand choklariga ham tegishli;
- vodosliv zanglashdan saqllovchi bo'yoq bilan 3 marta bo'yalishi kerak.

**V o d o s l i v l a r n i o ' r n a t i s h :** Vodoslivlarni o'rnatishda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- vodosliv o'rnatilganda uning bo'ylama o'qi kanal yoki ariqdagi suv oqimi o'qiga mos tushishi kerak;
- vodosliv devori ariq yoki kanalning o'qiga mutloq ko'ndalang va tik holatda bo'lishi kerak;
- vodosliv ostonasi esa gorizontal bo'lishi kerak;
- vodosliv yon qirrasidan kanal yoki ariq yon qirg'og'iga bo'lgan masofa ( $a$ ) suv oqimining maksimal  $N_{\max}$  chuqurligidan katta bo'lishi kerak, ya'ni,  $a \geq H_{\min}$  shart bo'yicha o'rnatilganda vodosliv tubidan yoki yonlaridan suv sizib o'tmasligi kerak;
- satx o'lhash reykasining noli, vodosliv ostonasining sathi bilan bir xil bo'lishi kerak;
- vodosliv ostonasi R-ningbalandligi, pastki b'efdagi maksimal suvsatxi  $h_{\max}$  dan balandroq bo'lishi kerak (5-6 sm);
- yuqori bef dagi oqimning tezligi 0.5 m/s dan oshmasligi kerak.

Vodosliv o'rnatiladigan devor temirbeton, monolit beton va hokazolardan quriladi, ularning o'lchamlari kanal tubi va yon tomonlaridan yuvilib, o'pirilib ketmasligi uchun kanalning ko'ndalang kesimi o'lchamlariga nisbattan etarli darajada katta bo'lishi kerak.

Devorning qalinligi, materialning turi va unga tushadigan og'irlilikka qarab konstruksiyasi tanlanadi. Kanalning vodosliv o'rnatiladigan qismi to'g'ri, ko'ndalang kesimi simmetrik bo'lishi kerak.

Kanalning vodoslivdan oqim bo'yicha keyingi qismi kanal chuqurligi ( $N_k$ ) dan 2-3 marta katta bo'lgan, ya'ni  $(2-3)N_k$  masofada beton yoki mahalliy material bilan mustahkamlanadi.

**V o d o s l i v d a n o' t a y o t g a n s u v s a r f i n i o'lchash:** suv sarfi qo'yidagi ifodalar orqali hisoblanadi :

Tomson vodoslivi:

$$Q = 1400H^2\sqrt{H}, \text{ l/s} \quad (6.7)$$

CHipoletti vodoslivi

$$Q = 1900bH\sqrt{H}, \text{ l/s} \quad (6.8)$$

Ivanov vodoslivi

$$Q = 1900\left(\frac{b+H}{b+0.25}\right)bH\sqrt{H}, \text{ l/s} \quad (6.9)$$

bu erda:  $H$ - vodosliv ostonasidagi suv sathining balandligi, m

(6.7), (6.8) va (6.9) ifodalardagi 1400 va 1900 raqamlarini o'zgarmas koeffitsient  $K$  deb qabul qilingan, unda  $K$  ning 1400 va 1900 qiymatlarida suv sarfi  $\text{l/s}$  da,  $K$  ning 1,4 va 1,9 qiymatlarida esa  $\text{m}^3/\text{s}$  da qabul qilinadi.

(6.7), (6.8) va (6.9) ifodalari bo'yicha hisoblangan suv sarfining suv sathiga bog'liq qiymatlari 4-chi va 5-chi jadvallarda keltirilgan.

Vodoslivdan erkin oqib tushayotgan suvningbosimi vodoslivga yuqori b'ef tomonidan mahkamlangan standart reyka orqali ko'zatiladi.

Erkin oqib tushayotgan suv oqimining chuqurligiga qarab 4 va 5-jadvallar orqali suv sarfi aniqlanadi.

4-jadval. **Tomson** va **CHipoletti** vodoslislari uchun suv sarflarining suv satxlariga bog‘liqlik jadvali

Reyka bo‘yicha satx N (sm)	VCH-50 Sarf Q (l/sek)	VCH-75 Sarf Q (l/sek)	VT-90 Sarf Q (l/sek)	Reyka bo‘yicha satx N (sm)	VCH-50 Sarf Q (l/sek)	VCH-75 Sarf Q (l/sek)	VT-90 Sarf Q (l/sek)
3,0	5,0	-	-	16,5	64,0	94,0	15,0
3,5	6,0	-	-	17,0	61,0	98,0	17,0
4,0	7,0	-	-	17,5	70,0	103,0	18,0
4,5	9,0	-	-	18,0	73,0	108,0	19,0
5,0	10,0	16,0	0,8	18,5	76,0	114,0	20,0
5,5	12,0	18,0	0,9	19,0	79,0	120,0	22,0
6,0	14,0	21,0	1,3	19,5	82,0	124,0	23,0
6,5	16,0	23,0	1,5	20,0		128,0	25,0
7,0	18,0	26,0	1,8	20,5		132,0	26,0
7,5	20,0	30,0	2,1	21,0		136,0	28,0
8,0	22,0	33,0	2,5	21,5		140,0	30,0
8,5	24,0	36,0	2,9	22,0		145,0	32,0
9,0	26,0	39,0	3,3	22,5		150,0	33,0
9,5	28,0	42,0	3,9	23,0		154,0	36,0
10,0	30,0	46,0	4,5	23,5		160,0	38,0
10,5	32,0	49,0	5,0	24,0		166,0	40,0
11,0	35,0	52,0	5,6	24,5		170,0	42,0
11,5	37,0	55,0	6,2	25,0		175,0	44,0
12,0	40,0	59,0	7,0	25,5		180,0	
12,5	42,0	63,0	7,7	26,0		186,0	
13,0	44,0	66,0	8,5	26,5		191,0	
13,5	47,0	70,0	9,3	27,0		197,0	
14,0	50,0	74,0	10,0	27,5		202,0	
14,5	52,0	78,0	11,0	28,0		208,0	
15,0	55,0	82,0	12,0	28,5		214,0	
15,5	58,0	86,0	13,0	29,0		220,0	
16,0	61,0	90,0	14,0	29,5		225,0	

5- jadval. Ivanov vodoslivi uchun suv sarflarining suv satxlariga bog‘liqlik jadvali

N,sm	VI-25, l/s	VI-50, l/s	VI-75	VI-100	N,sm	VI-100
2	1.5	2.76	4	5	25	279
3	2.7	5.0	8	10	26	297
4	4.04	7.0	12	16	27	316
5	6.06	11	17	22	28	336
6	8.0	15	22	29	29	356
7	10.5	19	28	37	30	377
8	13	24	34	45		
9	16	29	42	54		
10	19	34	49	64		
11	22	40	58	74		
12	26	46	66	85		
13		52.0	75	97		
14		60	84	109		
15		67	94	122		
16		74	105	135		
17		82	116	149		
18		90	127	163		
19		99	139	178		
20		108	151	194		
21			164	210		
22			177	226		
23			190	243		
24			204	261		

**V o d o s l i v t u r i n i h a m d a o‘lch a m l a r i n i t a n l a sh** Faraz qilaylik kanalda suv sarfining maksimal miqdori  $Q_{max} = 34$  l/s bo‘lganda, suv oqimining chuqurligi 20 sm, vodosliv ostonasining quyi b’efdagi suv sathidan 4-5 sm yuqori bo‘lishi kerak, demak bizning misolda  $R=25$  sm ni tashkil qiladi.

Vodoslivdan erkin oqib tushayotgan suv oqimining balandligi mahalliy sharoit bilan chegaralangan va 10 sm ni tashkil qiladi. Ushbu 10 sm li qalinlik uchun 1 va 2 jadvallarda keltirilgan suv sarflari VCH-50 vodoslivida - 45 l/s, VCH-75 vodoslivida 46 l/s, VT-90 vodoslivida - 4,5 l/s, VI-25 vodoslivida 19 l/s va t VI-50 vodoslivida esa 34 l/s ni tashkil etmoqda. Demak, biz uchun kerak bo‘lgan 34 l/s maksimal suv sarfini o‘lchash VCH-75 (46 l/s), CHipoletti vodoslivi va VI-50 34l/s. Ivanov vodoslivi yordamiiia ta’minlanishi mumkin. Metalni iqtisod

qilish maqsadida Ivanov vodoslividan foydalanish mumkin. 34 l/sdan ko‘proq sarfini o‘tkazish uchun esa VCH-75 vodoslividan foydalaanish mumkin.

V o d o s l i v l a r n i i sh l a t i sh. Vaqtি-vaqtি bilan vodoslivni tekshirib turish lozim, chunki ostonaning gorizontalligi, vodosliv devorlarining vertikalligi, reykalar nolining vodosliv ostonasi belgisi bilan mosligini xar doim nazorat qilish kerak.

YUqorii b’efda loyqa yig‘ilib qolgan bo‘lsa, uni loyqadan tozalash kerak. Vodosliv ostonasini pastki b’efida ko‘milish holatini oldini olish kerak.

## 6.6 Suv o‘lhash nasadkalari

N a s a d k a l a r n i g t u r l a r i v a u l a r n i q o‘ 11 a sh sh a r t l a r i . Suv o‘lhash nasadkalari ularning kirish va chiqish kesimlarining shakliga qarab doira, to‘g‘riburchak va kvadrat shaklida bo‘lishi mumkin. (14-rasm).

Suv sarfi 0,6-1,0 m<sup>2</sup>/s gacha bo‘lgan xo‘jalik kanallarida foydalaniladi va suv o‘lhash inshootidan dimlanishi 0,3 m dan oshmaydigan, kam nishabli vodoslivlarni ishlatish mumkin bo‘lmagan holatlar uchun tavsiya qilinadi. Suv sarfining o‘zgarish oralig‘i 4 dan ko‘p bo‘lmaganda, yani  $\frac{Q_{\max}}{Q_{\min}} \leq 4$  shart bajarilganda foydalanish mumkin.

Suv sarfi 40 l/s gacha bo‘lgan kichik kanallar uchun VxN 10x20 turdagи suv o‘lhash nasadkasi tavsiya qilinadi.

Suv o‘lhash nasadkasining qalanligi 3-4 mm li yassi metaldan yasaladi va to‘g‘riburchak kesimli, torayib boruvchi devorlardan; yuqoriga hamda pastgi tomondagi choc belgilari bir xil bo‘lgan va nasadkaning chiqish kesimi yuqori qismining belgisi bilan mos bo‘lgan o‘lhash reykalaridan iborat.

N a s a d k a l a r b i l a n s u v s a r f i n i o‘ l ch a sh. Nasadkalardan o‘tayotgan suv sarfi (m<sup>3</sup>/s):

-doiraviy kesimlar uchun

$$Q = 3,3 d^2 \sqrt{Z} \quad (6.10)$$

-to‘g‘iburchak kesimlar uchun

$$Q = 4.1 a_B \sqrt{Z} \quad (6.11)$$

Kvadrat kesimli uchun

$$Q = 4.1 a^2 \sqrt{Z} \quad (6.12)$$

ifodalar yordamida aniqlanadi

bu erda:

$a, v$ -nasadka chiqish tuynugining balandligi va kengligi,  $m$   $v=2a$ ;  $A=1,92a$ ;  $V=2,9a$ ;  $L=3a$ ;

Z-yuqori va pastki bflardagi suv sathlarining farqi,  $m$

Suv o'lhash nasadkasidan o'tkazilgan suv sarfi o'lhash nasadkasi yordamida bevosita qo'ydagicha o'lchanadi.

O'lhash nasadkasi, uning uchlari yuqori va quyi b'eflardagi suv sathlariga etguncha tushiriladi hamda  $Z$  yoki  $Q$  larning qiymatlari aniqlanadi. O'lhash nasadkasi bo'lmasa, yuqori va quyi b'eflardagi suv sathlarining farqi  $Z=H-h$  ning qiymati aniqlanadi.

Z - nint aniqlangan qiymati bo'yicha suv sarfi jadvali yordamida suv sarfi aniqlanadi (6-jadval).

#### 6-jadval

Suv o'lhash nasadkalari uchun suv sarfi jadvali

Z, SM	VN-10x20	VN-25x50	Z, CM	VN-10x20	VN-25x50	Z, SM	VN-10x20	VN-25x50
1,0	8,2	51,2	10,5	2b,5	1bb	20,0	3b,7	229
1,5	9,9	b2,2	11,0	27,0	170	20,5	37,2	232
2,0	11,b	72,2	11,5	27,7	174	21,0	37,b	235
2,5	13,0	78,2	12,0	28,5	177	21,5	38,0	238
3,0	14,2	83,7	12,5	29,9	181	22,0	38,5	241
3,5	15,3	90,0	13,0	30,0	185	22,5	39,0	243
4,0	1b,5	102,0	13,5	30,5	188	23,0	39,4	24b
4,5	17,5	108,0	14,0	31,0	192	23,5	39,8	248
5,0	18,5	115,0	14,5	31,4	195	24,0	40,2	251
5,5	19,3	120,0	15,0	31,8	198	24,5	40,b	253

b,0	20,0	12b,0	15,5	32,3	201	25,0	41,0	25b
b,5	20,7	130,0	1b,0	32,8	205	25,5	41,4	258
7,0	21,5	135,0	1b,5	33,3	208	2b,0	41,8	2b1
7,5	22,2	40,0	17,0	33,7	211	2b,5	42,2	2b3
8,0	23,0	145,0	17,5	34,3	215	27,0	42,b,	2bb
8,5	23,7	150,0	18,0	34,9	218	27,5	43,0	2b8
9,0	24,5	154,0	18,5	35,4	220	28,0	43,3	271
9,5	25,2	158,0	19,0	35,8	223	28,5	43,b	274
10,0	2b,0	1b2,0	19,5	3b,3	22b	29	44,0	27b

Suv o‘lchash nasadkalarini yasashda, urning hamma qirralari (ichki choklari tekis, toza va burtib chiqmagan bo‘lishi uchun) bir - biriga aniq tutashtiriladi. Suv oqimining chiqish teshigi o‘lchamlari (10x20) sm - ning xatoligi  $\pm 2$  mm dan oshmasligi kerak, qolgan o‘lchamlariniki esa  $\pm 5$  - 10 mm dan oshmasligi kerak.

1. Suv o‘lchash nasadkalarini yasashda, uning hamma qirralari (ichki choklari tekis, toza va burtib chiqmagan bo‘lishi uchun) bir - biriga aniq tutashtiriladi. Suv oqimining chiqish teshigi o‘lchamlari (10x20) sm - ning xatoligi  $\pm 2$  mm dan oshmasligi kerak, qolgan o‘lchamlariniki esa  $\pm 5$  - 10 mm dan oshmasligi kerak.

2. Nasadkaning bo‘ylama o‘qi kanalni to‘suvchi devoriga kundalang bo‘lib, kanalning bo‘ylama o‘qi bilan mos bo‘lishi kerak. hamma metall konstruksiyalar suvga chidamli buyoq bilan uch marotaba bo‘yalgan bo‘lishi kerak.

3. Nasadka kanal yoki ariqqa shunday urnatilishi kerakki, bunda uning kanalni to‘suvchi devor qirralari kanal tubi hamda qirg‘oqlariga etarli darajada chuqur (ichkari) kirishi, quyi b’efdag‘i suv sathi, nasadka chiqish teshigining tepe qismi belgi (otmetka) sidan kamida 5 sm yuqori, ya’ni ( $Z_i \geq 5\text{sm}$ ) bo‘lishi kerak, demak nasadkaping chiqish teshigi ish jarayonida albatta suv ostida ko‘milgan (bosimli rejimda) bo‘lishi kerak (14-rasm). Agarda ushbu shart bajarilmasa, unda kanallning tubi yana uyilib, nasadka pastroqqa o‘rnataladi.

4. Suv o‘lchash nasadkalarining ishlatish jarayonida, uning tagi va yon tomonlaridan suv oqib (sizib) chiqmasligi kerak. YUqori b’efda har xil suzib yuruvchi oqiziqlar bo‘lmasligi va yuqori qismini loyqadan tozalab turish kerak.


5. Suv sarfining o‘zgarish oralig‘i maksimal suv sarfining  $Q_{\max}$  minimal suv sarfiga  $Q_{\min}$  nisbati 4 dan katta bo‘lmasligi kerak, ya’ni

$$\frac{Q_{\max}}{Q_{\min}} \leq 4$$

6. O‘lchash xatoligi  $\pm 4\%$  dan oshmasligi kerak, ya’ni  $\sigma = \pm 4\%$

7. Suv satxlari farqining minimal miqdori  $Z_{\min} > 2$  sm dan katta bo‘lishi kerak.

8. Suv oqim tezligi (nasadkaga yaqinlashish tezligi) 0,5 m/s dan oshmasligi kerak.



## VII. SUV O'LCHAGICH-ROSTLOVCHILAR

### 7.1 Suv o'lchagich-rostlovchilar haqida umumiy tushuncha

Suvni hisobga olish va suv sarflarini rostlash uchun mo'ljallangan maxsus gidrotexnika inshootlari suv o'lchagich- rostlovchilar deb ataladi. Suv o'lchagich-rostlovchilar tuzilishi bo'yicha yaxlit inshoot bo'lib, suvni o'lchovchi va rostlovchi qismlaridan tashkil topgan.

Suv sarfini (sathini) rostlash zatvorlari qo'l yoki elektr yordamida boshqariladi.

Suv o'lhash qurilmasi suv sathlari (bosim) o'rtasidagi farqni hosil qiladi va inshootning kirish qismidagi zatvor oldida suv o'lchaydigan qo'shimchali rostlovchilar yoki inshootning chiqish qismidagi zatvor ortida (trubkasimon rostlovchilar- suv o'lchagichlar) joylashtirilishi mumkin.

Suv o'lchagich-rostlovchilar magistral va taqsimlash kanallarining bosh qismida hamda xo'jaliklarga  $10 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha bo'lgan suv sarflarini ajratishda qo'llaniladilar.

Suv sarfi  $10 \text{ m}^3/\text{s}$  dan ko'p bo'lganda suv o'lchagich-rostlovchilar mahsus loyihalanadilar.

Xozirgi paytda rostlash inshootlariga suv o'lhash qurilmalarining 10 dan ortiq turlari taklif etilgan.

Quyida sug'orish tizimlarida keng qo'llanilayotgan kelajagi bor suv o'lchagich-rostlovchilar ro'yxati keltirilgan.

Suvni xisobga olishni avtomatlashtirish uchun suv o'lchagich- rostlovchilarda quyidagi asboblar qo'llaniladi: DRS -60 va DRS-66 (SANIIRI); DRV va DRI (GSKB si Gaz asbob avtomatika), VDG-58, DS-64, YUjNIIGva M –V-2, VDN-70 va boshqalar.

Ekspluatatsion gidrometriya amaliyotida asosan suv o'lchaydigan qo'shimchali rostlovchilar va suv o'lchaydigan qo'shimchali trubkasimon rostlovchilardan foydalilanadi.

## **7.2 Qo'shimcha jihozli suv o'lchagich-rostlovchilar**

Qo'shimchalar (qisqa trubalar) rostlovchilarning kirish qismida o'rnatiladi. Ular SANIIRIda taklif etilgan va ishlab chiqilgan (V.E. Krasnov 1961y.). Suv o'lchagich qo'shimchalari dumaloq, to'g'ri burchakli va og'zi to'g'ri yoki qiya bo'lgan varonkasimon trubadan iborat bo'lib, ular trubkasimon va ochiq rostlagichlarda qo'llaniladi va shu bilan qo'shimchali suv o'lchagich rostlovchilarni tashkil etadilar.


Qo'shimchali suv o'lchagich – rostlagichlar qo'yidagi sharoitlarda qo'llaniladi: yuqori befda suvning sekin oqishida hamda u erda suvning balandligi qo'shimcha teshigiga nisbatan 1,3-1,5 sm, ostonaga nisbatan 30 sm dan kam bo'limgan.

bo'lishi mumkin va ular trubasimon va ochiq rostlovchilarda qo'llaniladilar va suv o'lchaydigan qo'shimchali rostlovchilarni – tashkil etadilar ular rostlovchilarning suv o'tkazish xususiyatini deyarli kamaytirmaydi.

Suv o'lchaydigan qo'shimchali rostlovchilar, sharoitida minimal dimlanishni ta'minlaydi.

## **7.3 Qo'shimchali suv o'lchagich trubkasimon rostlovchining konstruksiyasi**

Amaliyotda qo'shimchali mavjud suv o'lchagichli trubkasimon rostlovchilar asosan rostlovchilarni qayta jihozlashda qo'llaniladi va ular bir-biridan qirrasining tuzilishi bilan farqlanadi. Uchi (boshi) qo'yidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: sho'ng'uvchi (parallel yoki bo'lingan) devor, teskari (konusli va konussiz). Qo'shimchali trubkasimon rostlovchining eng keng tarqalgan konstruksiyasi 13-rasmda keltirilgan.



13.rasm. Trubkasimon rostlovchilar ko‘rinishlari.(Xamadov 146,34)

Qo‘sishmchaning konstruksiyasi uchta ko‘rinishda bajarilishi mumkin: dumaloq shakldagi qisqa truba ko‘rinishda (a) bo‘lib, u suv ichidagi devorlar orasidagi esa parallel devorlar orasidagi gorizontal tokchani tashkil etadi; to‘g‘ri burchakli og‘iz tomoni kengaygan trubga (v) bo‘lib, paralel bo‘lmagan suvga cho‘kkan devorlar orasidagi gorizontal tokchadan iborat.

Qo‘sishmchaning barcha turlarida suv oqimini turba orqali yo‘naltiradigan to‘sif bo‘lishi shart.


Qo‘sishmchaning uzunligi suv ichidagi devorlar orasidagi joylashishiga qarab  $L=1.5-3a(d)$  ga teng bo‘ladi. Qo‘sishmcha va zatvor orasidagi 30-40 sm oraliqdagi ochiq joy zatvorni nazorat qilish va ta’mirlash uchun qoldirilgan. Suvni hisobga olishni avtomatlashtirish uchun DRS-60, DRS-66 yoki DRV asboblari o‘rnataladi.

Qo‘sishchadagi havo vakuumni yo‘qotish va suv oqimining turbulentligini kamaytirish uchun zatvor ortida bevosita havo kirishini ta’minlovchi truba o‘rnataladi.

Qo‘sishchali suv o‘lchovchi turibkasimon rostlovchilar maxsus quduqcha bilan jihozlanadi va unga DRI turidagi ikkita po‘kakli asbob o‘rnataladi . Ayrim xollarda ketma-ket joylashgan ikkita quduqcha o‘rnatalishi mumkin.


Qo‘sishchali suv o‘lchovchi turibkasimon rostlovchining bir-biridan tuzilishi bilan farq qiladigan turlari mavjud.

Masalan, Azarbajjon giprovodxozida (E.E. Ovcharov, 1972) «Baku» tizimidagi DRI qabul qiluvchi va uzatuvchi (datchik) qurilma bilan jihozlangan suv o‘lchovchi qo‘shimchali turbkasimon rostlovchi (.... rasm).



Vodoypusk s pristavkoy i priborom sistemy «BAKU-2»  
1-datchik DRI, 2-vodomernaya pristavka, 3-shkaf upravleniya, 4-zatvor.

Sredazgiprovodxlopoq instituti 1973-1974 yillari turbkasimon rostlovchilar uchun suv o‘lchovchi qurilmaning namunaviy loyihasini ishlab chiqaradi (....rasm).



Sxema vodomernogo ustroystva dlya trubchatykh  
regulyatorov(Sredazgiprovodxlopoek)

1-polka, 2-kronshteyn, 3-korpus-korpus s priborom, 4-stenka, 5-korob.

YUqorida qayt etilgan rostlovchilardan tashqari yana amaliyotda quyidagilar qo'llaniladi.

- a)** Suv chiqish joyidagi suv o'lhash moslamali trubkasimon rostlovchilar (suv chiqaruvchilar);
- b)** Suv o'lchovchi uchlikli trubkasimon rostlovchi (suv chiqaruvchi);
- v)** Xalqali trubkasimon rostlovchi-suv o'lchagich;
- g)** YOnlama silindrli trubasimon rostlovchi-suv o'lchagich;
- d)** Venturi turidagi toraygan trubkasimon rostlovchi- suv o'lchagich.
- a)** Suv chiqish joyidagi suv o'lhash moslamalari trubkasimon rostlovchilar (suv chiqaruvchilar).

Ular sug'orishda keng tarqalgan va ularga kelajakda yanada ko'p e'tibor beriladi.

Trubkasimon rostlovchilar (TR) uchlikli (TRU), halqali (TRH), yonlama silindrli (TRQ) va Venturi (TRV) bo'lishi mumkin.

Ushbu suv o‘lchash qurilmalari suv o‘lchagichning bosim farqini hosil qiladi va shu asosida suv hisobga olinadi.

a) Trubkasimon rostlagichlarning qulay tomoni – uchining(ogolovka) konstruksiyasiga va qurilmaga oqib kelayotgan suv sharoitiga bog‘liq emasligi, kamchiligi esa qo‘sishmcha suv bosimining hosil bo‘lishi, qurilmaning suv sarfi koeffitsientini pasayishidan iborat. Bu holat suv o‘lchagichning ancha turg‘un ishlashi bilan to‘ldiradi. Trubkasimon rostlovchilarni ishlatishdagi asosiy talab – qo‘yi befdagi minimal suv sathida trubaning chiqish qismi suv osti bo‘lishi kerak. SHu bilan suvning oqishini bosimli rejimini ta’minlamaydi; qurilma tizimida suv bosimi (perepad) 25-30sm dan ko‘p bo‘lishi kerak.


Trubkasimon rostlovchilarda suv olishni avtomatlashtirish differensial asboblar yordamida amalga oshiriladi.

**b)** Suv o‘lchaydigan uchlikli trubkasimon rostlovchilar (suv chiqaruvchi).

Suv o‘lchaydigan uchlikli trubkasimon rostlovchilar 1938 yili SANIIRIda (M.V.Butyrin) ishlab chiqilgan. Uning fazilatlaridan biri oqiziqlarni(axlatlar) erkin o‘tkazishi va oqib chiqadigan suvning oqish tezligini ko‘payishi natijasida qo‘yi befdagi uchlikni loyqa bosmaslidir.

Ular boshli (ogolovka) qulfak, truba-rostlovchi, trubaning gorizontal qismi, ort qismi (konicheskiy) birlashadigan uchlik va asbob uchun quduqdan iborat (39 a-rasm)

39 a –rasm- Xamadov 155 bet.



Asosiy o‘lchamlari –uchlikning kirish diametri D, chiqish diametri  $d=0.74D$ , uzunligi  $l=2d$ .


Suv sarfi qo‘yidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Q = K \cdot 0,785d^2 \sqrt{2gZ_e}$$

bu erda: K- suv o‘lchagichning sarf koefitsienti, K=1,12;

$Z_e$  - suv o‘lchagichdagi napor.

v) Xalqali trubkasimon rostlovchi - suv o‘lchagich 1955 yili SANIIRIda ishlab chiqilgan va sug‘orish tizimlarida qo‘llanilgan. Suv o‘lchaydigan uchlikli trubkasimon rostlovchidan suv o‘lchash moslamasi bilan farq qiladi.(40-rasm Xamadov)



40-rasm Xamadov

Diametri  $D$  bo‘lgan trubalar zvenosidan iborat bo‘lib silindrik xalqa va quduq torayib  $d=0,75D$  gacha etadi.

Suv bosimini tanlash quduq devoridagi teshikchalar o‘rniga bog‘liq bo‘lib torayish qismidan oldin ( $d=12$  sm) o‘rnataladi. Xalqaning umumiyligi dumaloq shaklidagi kirish qismini hisobga olgan holda  $0,57d+20(30)$  sm ga teng.

Suv o‘lchagich yordamida suv sarfi qo‘yidagi formula yordamida aniqlanadi.


$$Q = K \cdot 0,75d^2 \sqrt{2gZ_e}$$

bu erda:  $K$ - suv


o‘lchagichning sarf koeffitsienti,  $K=0,98$ ;

$Z_e$  - suv o‘lchagichdagi napor.

g) YOnlama silindrli trubkasimon suv rostlovchi – suv o‘lchagich SANIIRIda V.E.Starkovskaya tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda yonlama silindrda foydalilanildi, konstruksiyasi bo‘yicha gorizontal truba vertikal o‘yib joytiriladi va bir vaqtning o‘zida silliq torayishni tashkil etadi. O‘lchov asbobini o‘rnatish uchun quduq vazifasini bajaradi. Bunday suv o‘lchaydigan moslama inshootda sarf koeffitsient oshishi bilan naporning yo‘qolishi kam bo‘ladi (41-rasm).



d) Venturi turidagi toraygan trubkasimon rostlovchi – suv o‘lchagich. Suv sarfi 7,0 m<sup>3</sup>/s gacha bo‘lgan holatlarda qo‘llash tavsiya etiladi. Venturi turidagi toraygan trubkasimon rostlovchi – suv o‘lchagich Sredazgiprovodxlopopok ilmiy tekshirish institutida ishlab chiqilgan va janubiy Mirzacho‘l suv tashlamalarida qo‘llaniladi.



Xamadov 41 rasm 160 bet

#### 7.4 Suv o'lchagich-rostlovchi asboblari shkalasini darajalash

YUqori qayd etilgan suv o'lchagichlar – rostlovchilarda suvni hisobga olishning maxalliy avtomatizatsiyasi ularga birinchi navbatda o'lhash asboblarini o'rnatish bilan amalga oshiriladi. Ularning ishi suv o'lhash moslamalari yordamida o'zgaruvchan suvni maromlashtirish va suv miqdorini aniqlab turishdir.

Asboblarning daraja ko'rsatkichi suv sarflari birligida ifodalanadi, bunda suv sarfi va bosim farqi o'rtasidagi funksiya to'g'ri chiziqli emas.

SHularni e'tiborga olib hisoblashni quyidagi tartibda olib borilishi mumkin: ikki po'kakli asboblarda suv o'lchagichning sarf koeffitsienti ( $K$ ) va suv o'tadigan kesim maydoni ( $\omega$ ) ma'lum bo'lganda to'g'ri chiziqli funksiyani o'zgartiruvchilar bo'limganda ( $\sqrt{Z}$ ) daraja ko'rsatkichida  $Q_{\min}$  dan  $Q_{\max}$  gacha bo'lgan qiymatlar quyidagi formulalar bo'yicha bo'linadi.

$$Q = K \cdot \omega \sqrt{2gZ_c} = A \sqrt{2gZ_c}$$

bu erda:  $A = K\omega\sqrt{2g}Z_c$  – proporsionallik koeffitsienti  $m^{2,5}/\text{sekda}$ .

Asbobning pasportidan to‘g‘ri chiziqli bog‘lanish tenglamasini bilib:

$$n_i = n_1 Z_c \quad (93)$$

bu erda  $n_i$  – ushbu sarf uchun daraja ko‘rsatkichidagi bo‘linmalar soni yoki graduslar;

$n_i$  -bosim farqidagi  $Z_c$  bir santimetrling qiymati bo‘linmalar soni yoki gradusda;

Sarf daraja ko‘rsatkichini darajalash quyidagi formula bo‘yicha bajariladi.

$$n_i = n_1 \left( \frac{Q^2}{A} \right) N,$$

bu erda:  $N$ - daraja ko‘rsatkichidagi bo‘linmalar soni.

$Q_{\min}$  dan  $Q_{\max}$  gacha bo‘lgan oraliqdagi suv sarflari qiymatlari berilib proporsionallik koeffitsientini ( $A$ ) aniqlab  $Z = \left( \frac{Q}{A} \right)^2$  ni hisoblaymiz, so‘ngra ushbu sarf uchun daraja ko‘rsatkichidagi bo‘linma sonini topamiz:  $n_i = n_1 Z$

SHu hisoblashlar asosida asbob siferblatida sarf shkalasini tushiramiz: DRS turidagi asbob va boshqalar uchun suv sarfi daraja ko‘rsatkichidagi bo‘linmalar qiymatini aniqlash uchun suv o‘lchagichning sarf koeffitsienti noma’lum bo‘limganda, albatta asbob tekshiruvdan o‘tkazilib, daraja ko‘rsatkichining noli belgilangach suv o‘lchagichning rostlovchisi yordamida o‘rtacha normal suv sarfi qayd etiladi, so‘ngra inshootdan quyi joydagi gidrometrik darvoza (chiziq)da gidrometrik vertushka yordamida suv sarfi o‘lchanadi va asbobning daraja ko‘rsatkichi bo‘yicha  $n_0$  qiymati graduslarda yoki bo‘linmalar soni yozib qo‘yiladi.

(x) formula bo‘yicha koeffitsentlar  $K$  va  $A$  doimiy bo‘lganda xamda bog‘lanish  $n=f(Z_b)$  to‘g‘ri chiziqli bo‘lsa, quyidagilar xosil bo‘ladi.

$$\frac{Q_i}{Q_0} = \sqrt{\frac{n_i}{n_0}}$$

bundan

$$n_i = \left( \frac{Q_i}{Q_0} \right) n_0$$

Ushbu formula yordamida sarf daraja ko‘rsatkichi qiymatlarga bo‘lish mumkin.

**Sinov uchun savollar:**

- 1.Suv o‘lchagichlar-rostlovchilar nima maqsadda ishlatiladilar?
- 2.Suv o‘lchagichlar-rostlovchilarning qanday turlarini bilasiz?
- 3.Asboblar shkalasini darajalash deganda nimani tushunasiz?
- 4.Suv o‘lchagichlar- rostlovchilarni darajalash tartibi?

## VIII TARIROVKALANGAN GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI

### 8.1 Tarirovka haqida tushuncha

Tarirovkalangan inshoot suvni hisobga olishning tejamli vositasidir. Inshootni suvni hisobga olishga tayyorlash va jihozlash **tarirovka** deb ataladi.


Tarirovka uchun foydalilaniladigan gidroinshootlar o‘zining konstruksiyasi va ish rejimi bo‘yicha har turlidir. Tarirovkalangan gidroinshootlar kanal boshida suv o‘lchagich – rostlovchi o‘rnatish iloji bo‘lmaganda yoki kanaldagi tranzit suv o‘lchash yo‘qligida qo‘llaniladi.

Faqat sozlangan doimiy injenerlik turidagi inshootlarni tarirovka qilish mumkin. Inshootlarni tarirovkalashda quyidagi shoroit mavjud bo‘lishi kerak:

- 1) Inshootning kirish qismida oqim tezligini kam bo‘lishi;
- 2) Har xil suv sathlarida o‘rnatilgan zatvorlar ostidan turli holatlarda suvning doimiy erkin oqib o‘tishi;
- 3) Inshootga suvning oqib kelishi va inshoot orqali o‘tayotgan suvda loyqa oqiziqlar bo‘lmasligi;
- 4) Inshootda suv sathini o‘zgarishining farqi 10 smdan oshmasligi va inshootning qo‘yi befida ko‘milmagan holat bo‘lishi;
- 5) Rostlanmaydigan inshootlar (tezoqar, novlar), rostlagichlar va zatvorlar ostidan suvning erkin oqishida suvning sarfi (N) yoki ikki o‘zgaruvchan miqdorlarga (N va zatvorning ko‘tarilish balandligi, a)ga bog‘liq ekanligi;

Inshootlarni tarirovka qilishda asosan gidrometrik va hidravlik usullarda bajarish tavsiya etiladi.

Tarirovkaga tayyorgarlik ishlari dala ishlaridan va ularni qayta ishlashdan, tarirovka tenglamalarini, grafiklarni va jadvallarni tuzishdan iborat. Bu ishlarni bajarish tartibi va hajmi tarirovka usuliga bog‘liq (..... rasm).



**14-rasm. Tarirovka qilishga qabul qilingan gidrotexnik inshootlar sxemasi**

Tarirovkaga tayyorgarlik ishlarida quyidagi dala ishlari bajariladi: a) inshootning asosiy o'lchamlarini aniqlash; b) suvning xilma-xil o'tish sharoitlarida suv sarflarini o'lhash; v) turli suv sarflarida suv sathi balandligini kuzatish; g) keyinchalik kuzatish olib borish uchun maxsus moslamalarni o'rnatish. SHunday qilib gidroinshootni tarirovkalashga tayyorgarlik ishlaridan, ma'lumotlarni qayta ishslashni o'z ichiga olgan dala ishlari, tarirovka tenglamasini, grafiklar va jadvallar tuzishdan iborat. Inshootlarni tarirovka qilishni asosan gidrometrik va hidravlik usullarda bajarishni tavsiya etiladi.

## 8.2 Gidrotexnik inshootlarni tarirovka qilishdagi tayyorgarlik ishlari

Tarirovka usullariga bog'liq bo'lмаган holdagi tayyorgarlik ishlari qo'yidagilardan iborat:

1. Inshoot bilan tanishish, u orqali suvning oqib o'tish rejimini va ish sharoitini aniqlash. Nosoz zatvorlari (qiysaygan, kuchli filtratsiya, pastki qismining o'rilganligi, oqiziq va axlatlar bilan to'lib qolishi) mayjud bo'lgan

inshootlardagi kamchiliklar bartaraf etilmaguncha tarirovka qilinmaydi. Suvning oqib o‘tish rejimini aniqlash uchun zatvorni harakatga keltirib minimal, normal va maksimal suv sarflarini belgilab o‘tishiga amin bo‘lishimiz kerak.


2. Inshootni s’emka qilish va uning chizmasini tuzish.
3. Tarirovka qilish uchun inshoot jihozlarini va unga tegishli maydonlarni tekshirish (reperlar yoki reper nuqtalarini, suv sathini o‘lhash reykalarini, zatvorlarni ochilish balandligini aniqlash uchun o‘rnatilgan moslamalarni).
4. Tarirovka qiluvchi inshoot orqali o‘tuvchi suv sarfini o‘lhash uchun gidrometrik stvorni tashkil etish.


### **8.3 Tarirovkaning gidrometrik usuli**

Gidrometrik usulning moxiyati shundan iboratki, dala sharoitida inshootdagi suv sarfi va suv sathlari o‘lchanadi hamda gidravlik formulalardan foydalanilmasdan grafiklar va jadvallar tuziladi.

Tarirovka grafiklarini va jadvallarini tuzish maqsadida olib boriladigan dala ishlariga gidrometrik darvozada bir qator suv sarflarini o‘lhash va suv sathlariga va inshootdagи zatvorlarning ochilishiga mos kelgan kuzatishlar (yozuvlar) kiradi. O‘lhashlar soni inshoot turiga, oqib chiqayotgan suv rejimiga bog‘liq.


Rostlamaydigan inshootlar yoki rostlovchilar uchun zatvorlar to‘liq ko‘tarilgan va suv erkin oqib chiqayotganda suv sati  $H_{min}$  dan  $H_{max}$  gacha bo‘lgandagi oraliqda 6-8 ta o‘lchovning o‘zi etarli.






**14-rasm. Tarirovka qilishga qabul qilingan gidrotexnik inshootlar sxemasi**



Suvning oqib chiqishi ko‘milgan holatda har turli  $Z=H-h$  bo‘lganda 8 –10 ta o‘lchashlar o‘tkaziladi. (.....rasm).





**15-rasm.**

Barcha turdagи inshootlar uchun suv erkin yoki ko‘milgan xolatdagi darvozadan oqib chiqqanda 40 dan kam bo‘lмаган о‘lhashlar olib borilishi kerak.



**16-rasm**

Ko‘p oraliqli inshootlarda bajariladigan ishlar xajmi oshadi, shu sababli tarirovkani kulfaklarni ochilishini doimiy chizma bo‘yicha o‘tkazishni tavsiya etiladi: barcha kulfaklar bir qavatning o‘zida bir xil balandlikga ko‘tariladi; qulfaklar zinapoya chizmasida simmetrik holatda qo‘shti qulfaklar bir-biridan o‘zaro bir hil oraliqda bo‘lganda; simetrik bo‘lmagan chizmada; qulfaklar juft bo‘lganda va x.k.

Darvozalarning ko‘tarilishi tanlangan chizmasi inshoot ishlashining ekspluatatsion rejimi bilan kelishiladi va uni keyinchalik o‘zgartirilmaydi. Birinchi chizmaga ko‘proq etibor beriladi. Tarirovkada qo‘shma usuldan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi; misol uchun, suv qulfaklarsiz oqib o‘tsa gidrometrik usul, suv qulfak ostidan oqsa gidravlik usulni qo’llash maqsadga muvofiqdir.


Tarirovka vaqtida o‘lchanadalar va kuzatuvlar tartibi qo‘yidagicha: inshoot beflarida kerakli suvning balandligiga va qulfakning xolatiga (suv qulfak tagidan oqayotganda) erishilgach, tarirovka qilinayotgan inshoot orqali oqayotgan suv sarfi o‘lchanadi va kuzatish joylarida suvning sathi kuzatiladi. Suv sarfi gidrometrik vertushka yordamida asosiy usulda o‘lchanadi. O‘lchanadalar uzoqqa cho‘zilmasligi kerak, chunki o‘lchan paytida suv sarfi va suv sathi o‘zgarmasligi kerak. Tarirovka vaqtidagi o‘lchan natijalari maxsus qaydnoma yoziladi. Tarirovka grafiklari suv qulfaksiz oqayotganda olib borilayotgan o‘lchov ishlari to‘ldirilgan qaydnoma asosida tuziladi va millimetrlri qog‘ozda  $Q=f(H)$  yoki  $Q=f(Z)$  bog‘lanishlari tayyorlanadi. Agar egri chiziq silliq bo‘lsa, va nuqtalar og‘ishi 2-3 % ni tashkil etishi kerak. Har kungi sarfni aniqlash uchun tuzilgan grafik asosida sarflar (tarirovka) jadvali tuziladi.(16-jadval).

16-jadval

Suv sarflari jadvali (l/s)

Inshootning namlanishi va joylashish o‘rni

Nsm	Santimetrlar										Izoh
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	
0	-	-	-	-	-						
20	0,067	0,075	0,083	0,092	0,102	0,113	0,123	0,133	0,143	0,153	Suv
30	0,163	0,173	0,184	0,195	0,207	0,221	0,234	0,248	0,260	0,273	o‘lchash
40	0,289	0,305	0,320	0,337	0,355	0,375	0,396	0,418	0,442	0,467	reykasining
va b	0,492	0,519	0,547	0,577	0,610	0,643	0,678	0,715	0,76	0,800	«o» belgisi



16-rasm

16-rasmida qaydnama asosida (16-jadval) qulfak tagidan suvning erkin oqayotgan inshoot uchun tarirovka grafigi tuzilgan.

17-jadval

O‘lchash qaydnomasini (inshootning namlanishi va joylashgan o‘rni).

O‘lchashlar t/r	Sana	O‘lchangani sarfi, Qm <sup>3</sup> /s	Bo‘sag‘a ustidagi suv sathi N,m	Qulfakning ochilishi, a, m	Izox

Qulfak tagidan suvning erkin oqayotgan xolat uchun grafiklarni tuzish va jadvallarni tayyorlash ancha murakkab ish, chunki bunda suv sarfi ikki

o‘zgaruvchanlardan-bosim N(yoki Z) va qulfakning ochilish o‘lchami a ga bog‘liq.

SHuni qayd etish kerakki, N va a oralig‘i katta bo‘lmaganligi sababli o‘lchashlar soni chegaralangan. SHu sababli oraliqlardagi miqdorlarni interpolyasiya qilishga to‘g‘ri keladi, bu esa suv sarfini hisobga olish aniqligini kamaytirishi mumkin.

Ordinata o‘qiga qulfakning ochilish miqdori a tushirilgan(napor N ni ham qo‘yish mumkin), abssissa o‘qi bo‘yicha esa, qulfakning ochilish o‘lchamiga mos keladigan suv sarfi qiymati tushuriladi.

Tarirovka grafigidagi (16-rasm) malumotlar asosida sarf jadvali (17-jadval) tuzilgan. Qulfakning ochilishi va napor o‘rtasidagi oraliqlar shunday talanadiki, suv sarfi vertikal va garizontal bo‘yicha farqi 5-6% ni tashkil etishi kerak.

18-jadval

**Suv sarflari jadvali Q,m<sup>3</sup>/s  
(inshootning nomlanishi va joylashish o‘rni. Oqim rejimi)**

Qulfakning ochilishi a,sm	Suv bosimi N,m								
	1,8	1,9	2	2,1	2,2	2,3	2,4	2,5	2,6
20	2,10	2,24	2,38	2,54	2,70	2,90	3,10	3,25	3,40
22	2,20	2,34	2,48	2,64	2,81	3,01	3,21	3,36	3,52
24	2,30	2,44	2,59	2,76	2,92	3,12	3,32	3,48	3,64
26	2,40	2,55	2,70	2,86	3,03	3,23	3,43	3,60	3,76
28	2,50	2,65	2,81	2,97	3,14	3,33	3,53	3,70	3,88
30	2,60	2,76	2,92	3,08	3,25	3,43	3,63	3,81	4,00
32	2,70	2,86	3,02	3,19	3,36	3,55	3,74	3,91	4,12
34	2,80	2,96	3,12	3,30	3,47	3,66	3,84	4,02	4,24
36	2,90	3,06	3,23	3,40	3,58	3,76	3,97	4,13	4,36
38	3,00	3,17	3,34	3,51	3,69	3,87	4,04	4,26	4,48
40	3,10	3,27	3,46	3,63	3,80	3,97	4,15	4,38	4,60
42	3,20	3,38	3,57	3,74	3,91	4,07	4,26	4,49	4,72
44	3,30	3,49	3,68	3,85	4,2	4,18	4,37	4,60	4,84
va h.k. 100gacha									

Xuddi avvalgiga o‘xhash tarirovka grafigi va jadvalini darvoza tagidan suvning ko‘milgan holatda o‘tishi uchun tuziladi. Ammo ular  $Q=f(Z, a)$  bog‘lanishni tuzish uchun foydalaniladi. Agar tarirovka qilinadigan inshoot qulfaklarni tuliq ochilganda (suvning erkin oqishi) va suvning qulfak ostida oqib o‘tishi holatlarida ishlasa unda tarirovka grafiklari va jadvalar xar bir xolat uchun alohida tuziladi.

#### **8.4 Tarirovkaning gidravlik usuli**

Bu usul gidravlik formulalarga va amaldagi suv sarfi koeffitsentlarini aniqlashga asoslangan. SHu sababli dala ishlari hajmi ancha qisqaradi. Inshootlarni tarirovka qilish shuni ko‘rsatadiki, suv sarflari koeffitsienti doimiy ( $\pm 5\%$ ) bo‘lishi mumkin, yoki ma’lum bir bog‘lanish bo‘yicha o‘zgaradi, odatda  $\frac{a}{H} \partial a_n$   $\partial a_n$   $\frac{a}{z}$  ..... gacha.

Tarirovka tartibi xuddi gidrometrik usuldagidek, faqat grafiklar va jadvallar tuzish tarirovka tenglamalari bo‘yicha bajariladi, lekin ayrim holatlarda suv sarflari tenglamasi mavjudligida, grafikga xojat qolmayli.

#### **8.5. Tarirovkalangan inshootlarda suvni hisobga olish.**

Tarirovkalangan gidroinshoot orqali oqib o‘tayotgan suv sarflarini har kunlik hisobga olish gidaravlik elementlar  $H, h, a$  asosida tuzilgan sarf jadvallari bo‘yicha aniqlanadi.  $H$  ni aniqlash uchun reyka noli va  $a$  ni aniqlash uchun moslama noli tarirovka davriga mos ravishda bo‘lishi kerak.

Inshootning ishlash sharoiti tarirovka o‘tkazilgan paytdagi vaziyat bilan bir xil bo‘lgandagina ushbu inshoot uchun tayyorlangan sarf jadvalidan foydalanish mumkin. Suvni hisobga olish bo‘yicha kundalik ishlar tarkibiga reyka nolining xolati va  $a$  ni aniqlash uchun moslamaning normal ishlashini vaqtiga vaqtiga bilan nazorat qilish kiradi.

Tarirovkalangan inshoot okib utadigan suv sarfini o‘lchash uchun va belgilangan suv sarfini o‘tkazish uchun foydalaniladi. Birinchi xolatda kuzatish

bosimni aniqlash to'siq tagidagi yoriq balandligini va jadval bo'yicha sarf mikdorini aniqlash kiradi. Ikkinchi xolatda esa, suvni erkin okib o'tish, sharoitida va darvoza kerakli holatda o'rnatiladi va belgilangan suv sarfi oqiziladi, darvozaning ko'tarilish balandligi yuqori bef dagi mavjud naporga bog'liq ravishda jadvaldan aniqlanadi; suv bosgan holatda belgilangan sarf asta-sekin rostlab o'tkaziladi, dastlab sarflar jadvalidan o'tkazilayotgan suv sarfi aniqlanadi yoki uning belgilangan sarfdan oz yoki ko'pligiga qarab darvoza ko'tariladi.

Pastki befda suv sathi o'zgarmay turganda N, h, Z, miqdori aniqlanadi va suv sarfi miqdorini jadval bo'yicha tekshiriladi.

Agar suv sarfi belgilangandan 3-4% ga ko'p bo'lsa, yana bor qulfak o'zgartiriladi.

Sinov savollari.

1. Gidrotexnika inshootini tarirovka qilish uchun qanday tayyorgarchilik ishlari olib boriladi?
2. Qanday usullarda tarirovka ishlari bajariladi?
3. Qanday sharoitlarda qanday usuldan foydalilanadi?
4. Suvni hisobga olish qanday tartibda olib boriladi?

## **IX. GIDROMELIORATIV TIZIMDA QO‘LLANILADIGAN UZLUKSIZ YOZISHNI QAYD ETUVCHI ASBOBLAR.**


### **9.1 O‘ziyozagich asboblar haqida to‘shuncha**

Agar sarf o‘lchagichga uzluksiz qayd etuvchi asbob o‘rnatilsa, unda uning yordamida uzluksiz suv sarfini aniqlash, yoki bo‘lmasa ma’lum davr uchun yig‘indi suv oqimi miqdorini bilish mumkin bo‘ladi. Bu holatda sarf o‘lchagich suv o‘lchagichga aylanadi. Ularni mavjud gidrotexnika inshootlarida suvni hisobga olishning o‘zanli usulida suvni hisobga olishni avtomatlashtirishda foydalanish mumkin. Bu maqsadda foydalanadigan uzluksiz qayd etadigan asboblar suv sathini o‘ziyozagichlar (limnograflar), suv sarfi graflari va oqim hisoblagichlarga bo‘linadilar.

### **9.2 Gidromeliorativ tizimida suvni hisobga olishda foydalanadigan suv sathini uzi yozgich asboblar**

Sug‘orish kanallarida suvni hisobga olishda maxalliy sharoitga bog‘liq holda, tabiiy o‘zanlarda foydalaniladigan suvni o‘zi yozgich asboblarini qo‘llash mumkin, ammo ularning konstruksiyasi ancha murakkabligi uchun sug‘orish tizimlarida suvni hisobga olish sharoitiga xar doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. SHu sababli ekspluatatsion gidrometriya amaliyotida suv sathini o‘ziyozagich asboblaridan foydalaniladi. Ular SUV Valday va GR-38 lardan iborat.

SHunday qilib gidrometrik novlarda, suv tushirgichlarda va o‘zgarmas o‘zanlarda suv sathini yozgich GGI-41 dan foydalanish maqsadga muvofikdir (17-rasm).



**17-rasm. Suv sathini o‘ziyozagich GGI-41 chizmasi**

Uning ishlashi SUV «Valday» nikiga juda o‘xhash. Suv sathi o‘ziyozgich GGI-41 baraban (do‘mbira) dan (1), uzatma tasmasini xarakatga keltiruvchi g‘ildirak (2), soat mexanizmli (3), po‘lat simlardan ishlangan arqon (4) va perodan (5) iborat. Peroning do‘mbira bo‘yicha xarakat vaqtining davom etishi- bir sutka. O‘ziyozgich ikki mashtabda yoziladi. (1:1 va 1:5) soat mexanizm 7 sutkaga buraladi.

Ekspluatatsion gidrometriya postlarida o‘rnatish uchun SANIIRI-46 va SANIIRI - 47 ixtiro qilindi.

### **9.3 Sarfgraflar**

Ko‘p hollarda suv sathini o‘ziyozgichlar boshqa moslamalar bilan almashtiriladi va ular bevosita suv sarflarini qayd etadilar va **sarfgraflar** deb ataladi.

Sarf o‘lchagichlarni sug‘orishda qo‘llash muhim hisoblanadi, chunki asosiy e’tibor suv sathi emas, balki suvni miqdorini hisobga olishga beriladi. Sug‘orish kanallarida va sug‘orish manbalarida suv sathini kuzatishlar ma’lumotlari ko‘p hollarda keyinchalik suv sarfini va suv oqimini aniqlash uchun zarurdir. Odatda sarfgraf sifatida suv sathini o‘ziyozgichga o‘rnatilgan moslamadan foydalaniladi. U maxsus uzatkich (kulachkovaya peredacha) yoki **gidrometrik ulitkadir**.

Ulitkalar yordamida suv sathini chiziq o‘zgarishini ko‘rsatuvchi sarf chizig‘iga aylantiriladi. Ulitkalarni ishlatishdagi asosiy shart suv sarflari va suv sathi o‘rtasidagi bo‘g‘in bog‘lanishning mavjud bo‘lishidir.

### **9.4 Oqim hisoblagichlari**

Suv sathini o‘ziyozgichlar, hamda sarfgraflar ayrim vaqt uchun suv sathlari va suv sarflarini avtomatik yozuvini beradi. Bu asboblar yordamida olingan ma’lumotlar asosida yig‘indi oqim faqat tegishli hisoblashlardan so‘ng olinadi.

Yig‘indi oqimini bevosita o‘lchovchi maxsus asboblar **oqim hisoblagichlari** deb ataladi.

Ko‘pchilik oqim hisoblagichlarining konstrutsiyasi o‘zan ko‘ndalang kesimi o‘zgarmaydigan xolda suvning oqish tezligini uzlusiz o‘lchashga asoslangan. Bunday hisoblagichlar **tezlik hisoblagichlari** deb ataladi. Tezlik hisoblagichlarga standart vodoprovod hisoblagichi «**Kosmos**», D.P Kolodkevich hisoblagichi va K.S. Glubjev hisoblagichi kiradi.

### **9.5 Sug‘orish tarmog‘ida uzlusiz yozishni qayd etadigan jihozlarni o‘rnatish sharoitlari**

Sug‘orish tarmog‘ida suv satxini o‘ziyozgich, sarfgraflar va oqim hisoblagichlarni o‘rnatilayotganda ular o‘rnatiladigan maxsus qutining o‘lchamlari asbobning o‘lchamiga mos kelishi kerak. Ulardagi lenta (tasma) almashtirilganda, kuzatuvlar, olib borilayotganda rostlashda asbobni qutidan chiqarishga xojat qolmasligi kerak.

SANIIIRIda suv sathini yozgich uchun maxsus kudukcha ishlab chiqilgan. U bir vaqtning o‘zida o‘ziyozgichni joylashtirish uchun quti vazifasini ham o‘taydi.

Kanaldagi suvning oqim tezligi unga katta bo‘lmaganda (1m/s gacha) quduqlar o‘zanda, cho‘michga qirg‘oqda o‘rnatiladi.

Quduqcha sifatida trubani ishlatsa bo‘ladi. U minimal suv sathiga ko‘miladi. Trubaning pastki qismida suv kirishi uchun teshik qoldiriladi. Trubaning diametri 20-30 sm bo‘lishi kerak.

Trubaning ustki qismiga quti o‘rnatiladi. Qirg‘oq va truba oralig‘iga ko‘prik o‘rnatiladi.

Sarf o‘lchagich va oqim hisoblagichlarni o‘rnatish sharoiti ochik o‘zanlarda o‘rnatiladigan suv sathini o‘ziyozgichlaridan farq qilmaydi.

#### **Sinov savollari**

- 1.Qanday qilib suv sathini o‘ziyozgichni sarf o‘lchagichga aylantirish mumkin?
- 2.Sarfgraflar qanday vazifani o‘tashadi?
- 3.Oqim hisoblagichlar qaerlarda qo‘llaniladi?
- 4.Sarfgraf va oqim hisoblagichlar qaerga o‘rnatiladilar?

## X. AVTOMATLASHTIRISHNING XOZIRGI ZAMON MOSLAMALARI

### 10.1 Avtomatlashirishning gidrometriyadagi ahamiyati.

Suvni hisobga olishning avtomatlashirishning oddiyiga nisbatan afzalliklari quyidagicha;

a) avtomatlashirish to‘xtovsiz hisobga olish imkonini beradi; buni shtatdagi kuzatuvchi yordamida amalga oshirib bo‘lmaydi.

b) tarmoq bo‘yicha taqsimlanayotgan va dalaga ajratiladigan suv miqdorini hisobga olishda u ayrim davr uchun o‘rtacha sekundli suv sarfi yoki shu davrning yig‘indi oqimi bilan belgilash mumkin. Mazmunan bu ikki miqdor bir xildir, chunki ikkala davr  $T$  uchun o‘rtacha suv sarfi  $Q_{o\cdot r}$  qiymatini aniqlash talab etiladi.

YUqorida bayon qilingan suvni hisobga olish usullarida kerakli  $Q_{o\cdot r}$  ni aniqlash uchun o‘lchangan suv sarflar yig‘indisini ( $\Sigma Q_i$ ) kuzatishlar soniga ( $n$ ) bo‘linadi.

$$Q_{o\cdot r} = \frac{\sum Q_i}{n}$$

Kanalda yoki tabiiy manbada suv sarfi o‘zgay turganda o‘lchash ishlarini minimumgacha kamaytirish mumkin, va aksincha, suv sarflari keskin o‘zgarganda, o‘lchashlar sonini ko‘paytirish kerak va shu bilan suv sarflaridagi barcha o‘zgarishlarni qayd etigan bo‘linadi.

Bunda har qancha xarakat qilinsa ham, o‘lchashlar orasidagi suv sarflari nazoratsiz qolmaydi. Bu kamchilikdan qutilish yo‘li- o‘lchash ishlarini avtomatlashirishdir.

SHunday qilib, oqib o‘tayotgan suv sarfini avtomatik uzluksiz hisobga olish uning o‘lchash aniqligini oshirish imkonini beradi.

Avtomatlashirishda insonga xos bo‘lgan kuzatilishi mumkin bo‘lgan xatolarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Avtomatlashirish suvni hisobga olish tezkorligini oshiradi, kuzatish ma’lumotlarini qayta ishlashni keskin qisqartiradi va aloqani avtomatlashirish bajarilgan taqdirda ma’lumotlardan tezroq amaliy foydalanishni ta’minlaydi.

## **10.2 Avtomatlashtirish moslamalarining tasnifi**

Sug‘orish tizimidagi barcha avtomatlashtirish moslamalarini bir necha guruhga bo‘lish mumkin:

- a) suv sathining avtorostlovchilari (qulfaklar - avtomatlar);
- b) suv sarflari avtorostlovchilari (stabilizatorlar);
- v) avtorostlovchilarlar (stabilizatorlar)-proporsional suv taqsimlagichlar;
- g) loyqa oqiziqlarni yuvuvchi avtomatlar (avtomatik moslama)
- d) gidroinshoot qulfaklarini xarakatga keltiruvchi avtomatik ishlaydigan tizim.

Qulfaklarni xarakatga keltirishda foydalaniladigan energiya turiga bog‘liq xolda ular elektrik, gidravlik bo‘lishi mumkin.

## **10.3 Elektrik avtorostlovchilar**

O‘shbu avtorostlovchilar odatda darvozani avtomatlashgan elektr tarmog‘i bilan ulangan ko‘tarish mexanizmini ishga soladi. Elektr tarmog‘i elektr dvigitelidan dvigitellarni boshqaruvchi apparat va bajaruvchi elementdan iborat. Qoida bo‘yicha uning chizmasi ikkita ayrim elektr zanjiridan iborat: dvigitel va boshqaruv tizimi. Murakkab chizmalarda signalizatsiya, blokirovka va muxofaza zanjirlari mavjud.

Elektr avtorostlovchilarining ijobiy tarmoqlari: qulfaklarni berilgan rejim (suv sathini, suv sarfini va b.ni rostlash) avtomatlashtirish imkoniyatlari; masofadan turib qulfaklarni boshqarish va nazorat qilish inshoot qulfaklarida qayta o‘zgartirishni kiritishni talab qilmaydi.

Elektr avtorostlovchilarining kamchiliklari: elektr tarmog‘ini avtomatlashtirish uchun nisbatan ko‘p mablag‘ ketishi avtomatlashtirishga ketgan mablag‘larni 40% ob’ektlarni elektroenergiya bilan ta’minlashga ketadi); Elektroavtomatika tizimining kam muddatli ishlashi (bori yo‘g‘i 7-10 yil, inshootlarning ishlashi esa 50 yilga mo‘ljallangan). Elektroavtomatika tizimlari xar doim ishga tayyor bo‘lishi kerak.

## **10.4 Suv sathini gidravlik avtorostlovchilari**

Inshootning yuqori yoki pastki befida (kanalda) suv sathini maromlashtirish uchun ishlataladi. Avtorostlovchilarni tanlashda va loyixalashda ularga qo‘yiladigan talablar inobatga olinadi. Asosiy e’tiborni rostlash aniqligini asoslashga qaratiladi, chunki avtorostlovchilarni tayyorlash va montaj qilishning konstruksiv murrakkabligi qo‘yilgan talablarga bog‘liqdir.

Rostlash aniqligi – xosila miqdordir. Misol uchun, agar avtorostlovchilar suvni qirishining yuqori befida suv sathini rostlasa, unda rostlash aniqligi beriladigan suvning talab qilinadigan aniqligi bilan ifodalanadi.

Suv sathining gidravlik avtorostlovchilari **bevosita tasir etuvchi va bilvosita tasir etuvchilarga bo‘linadilar.**

**a). Bevosita suv oqimini** rostlovchi suv oqimiga to‘ppa – to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Bilvositada esa suv oqimi rostlovchi oqimga bloklar tizimi, troslar bosim kameralari orqali oqimga ta’sir ko‘rsatadi.

Bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi avtorostlovchilar konstruksiyasining oddiyligi, yuqori ta’sirchanligi, tez ta’sir etuvchanligi, rostlash sifati ko‘rsatkichlari ishonchligi bilan ajralib turadi.

Ular uzoqdan turib boshqarishga mo‘ljallangan, ammo tayyorlash sifati va montajga katta talab qo‘yadi. Avtomatik rostlash tizimi ikki qismdan iborat: Rostlash obekti va avtorostlovchilarlar. Bevosita avtorostlovchilarlar daryoning tog‘li va tog‘ oldi joylaridagi suv olish tugunlaridagi automatizatsiyada yuqori befning lokal suv satxlarida qo‘llaniladi.

Bevosita tasir etuvchi gidravlik avtorostlovchilar parabolik va trapetsiodal novlarda foydalaniладilar.

**b) Bilvosita avtorostlovchilar** yuqori aniqlikdagi rostlashni ta’minlaydilar, ishda qulay, masofadan turib yoki teleboshqaruvni amalga oshiradi.

Ular bevosita avtorostlovchilarga nisbatan konstruksiyasi murakkab, rostlashi sust va yuqori ekspluatatsion talablar bilan ajralib turadi. Bilvosita avtorostlashlar ko‘proq suv oqish tezligi kichik bo‘lgan kam nishabli kanallarda qo‘llaniladi.

### **Sinov savollari.**

- 1. Gidrometriyada avtomatlashtirishning qanday ahamiyati bor?**
- 2. Avtomatlashtirish moslamalarining qanday afzalliklari mavjud ?**
- 3. Elektr avtorostlovchining qanday afzalliklari mavjud?**
- 4. Bevosita va bilvosita avtorostlovchilarning xususiyati nimalardan iborat?**

## XI. TEKNOLOGIK JARAYONLARNI AVTAMATLASHTIRISH

### 11.1 Suv olish bug‘inlari haqida tushuncha.

Suv olish deganda shunday texnologik jarayon tushiniladiki, uning maqsadi sug‘orish tizimiga kerakli suvni berishdir. Olinadigan suv oqiziqlardan va suzib yuruvchi narsalardan xoli bo‘lishi kerak. Suv olish bir qator texnologik ishlardan iborat: suvni ajratib olish, oqiziqlarga qarshi kurash, suvni berish inshootni buzilishdan muxofaza qilish va b. Texnologik ishlarning soni va turi suv olish (vodozabor) bo‘g‘inining turi, suv olish sharoitlariga va b. bog‘liq.

Inshootlarning suv olish bo‘g‘inlari o‘zi oqib keluvchi va mashinali suvning ko‘tarilishi bo‘lishi mumkin.

Gidrouzellarning chizmasi avtomatlashtirish hajmi, ularning turi, ishlar texnologiyasi, sug‘orish manbalarining xususiyatlari variantlarini taqqoslash asosida qabul qilinadilar. Iloji boricha ortiqcha avtomatlashtirish hajmlari bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Barcha suv olish bo‘g‘inlari o‘zi oqib suv beradigan bo‘lgan taqdirda **to‘g‘onli va to‘g‘onsizga bo‘linadilar.**

a) **To‘g‘onsiz suv olish bo‘g‘inlari** uncha ko‘p bo‘lmagan suv olishda, ko‘proq sug‘orish maydoni kam bo‘lgan tog‘li joylarda (100-150 ga) qo‘llanadilar. Ular tanxo ishlaydilar, aholi yashaydigan joydan uzoqda joylashgan kommunikatsiya va aloqa bo‘lmagan maydonlarda barpo qilinadi.

Ekspuluatatsiya sharoitining murakkabligi bu mintaqadagi sug‘orish manbai rejimining xususiyatlariga mintaqaning iqlimi sharoitlarining o‘zgaruvchanligiga va sovuqligiga bog‘liqdir.

To‘g‘onsiz suv olish bo‘g‘inlarida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilganda va qayta tiklanadigan suv oqimining gidravlik energiyasidan maksimal foydalanganda ular uchun yaxshi kelajak ochiladi. Bo‘g‘inning kompanovka chizmasi har turli sharoitga bog‘liq: hammasini e’tiborga olib bo‘lmaydi.

Gidrobo‘g‘inni boshqarish mahalliy, markaziy bo‘lishi mumkin. Markaziy bo‘lganda bo‘g‘in teleboshqaruv tizimlari bilan jihozlanadi.

**b) To‘g‘onli suv olish bo‘g‘inlari**, odatda katta miqdordagi suv olish (0,9 va undan ko‘p) bo‘lganda qo‘llanilladi. Ishlarning texnologiyasi va ularning konstruksiyasi qayirlarning eniga bog‘liq. Qayirlari keng bo‘lgan daryo uchastkalarida suv olish bo‘g‘inlaridagi daryo suv sarfi doimo tarqatiladigan suvdan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Qayirlari tor bo‘lgan daryo uchaskalarida quyidagilar kuzatiladi: yig‘ilgan oqiziqlarni yuvish uchun mo‘ljallangan suv sarflarini etishmasligi.

Qayirlari keng bo‘lgan daryo uchastkalaridagi suv olish bo‘g‘inlarini avtomatlashtirishda suv taqsimlash suv sarfi avtoregulyatorlari bilan bilan mustahkamlanadi. To‘g‘onning yuqori befida suv sathining avtoregulyatorlari o‘rnataladi. Ammo kata suv hajmi bo‘lgan taqdirda, yuqori befda suv sathining avtoregulyatori to‘g‘onda o‘rnatalishiga xojat qolmaydi.

Ekspluatatsiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agar chiqadigan suv ko‘p yo‘laklardan oqsa, barcha to‘sinq yoriqlarini avtorostlovchilar bilan jihozlash shart emas, bu narsa gidrotexnika inshootlari bo‘g‘ini ishini qiyinlashtiradi va ekspluatatsiya sifatini va sharoitini yaxshilamaydi.

Avtomatlashtirilgan yo‘lakchalar soni quyidagicha belgilanadi: suv taqsimlashda suv sarflarining avtorostlovchilari (quyi befning suv sathi) qo‘llaniladigan bo‘lsa, avtomatlashtirilgan yo‘llakchalardagi yig‘indi suv sarfi  $1,2 \Delta Q_{tarqat\ max}$  ( $\Delta Q_{tarqat\ max}$ -yo‘llakchalardagi maksimal va bo‘g‘inning yuqori befidagi suv sathlari o‘rtasidagi farq).

Suv kam bo‘lgan davrda respublikalararo, tizimlar orasida suv taqsimlashda oqiziqlar kam bo‘lgan davrda0 suv olishda proporsional taqsimlashli suv olish bo‘g‘inlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Avtomatlashtirilgan suv olish bo‘g‘inlarida nazarot va boshqaruv uchun suv sathini va suv sarfini o‘lchanish tizimi bilan jihozlanadi. Buning uchun har turli asbob va moslamalardan foydalilaniladi. Suv sarflari ko‘proq gidravlik qulfaklar – avtomatlar yordamida o‘lchanadi. Ular kerakli miqdorni o‘lchanish va uni uzoqqa

uzatish uchun qo'shimcha moslamalar bilan jihozlanadi. Misol uchun, suv sarfi stabilizatorlarida suv sarfini o'lhash uchun stobilizatorning ochilish balandligini o'lhash kifoya.

Bosh suv olish tarmog'ining buzilishini oldini olish uchun tovush va yorug'lik signalizatsiya suv olish bo'g'ining har bir elementiga o'rnatiladi. Signal relesi esa, qulfaqlarning birortasi ishdan chiqqanida ishga tushadi.

Boshqaruv pulidan murakkab bosh suv olish bo'g'inining ishlashini nazarot qilish uchun sanoat televizorlari, misol uchun, temir yo'l televizion moslamasi ishlatiladi.

## **11.2 Suvni taqsimlash**

Suvni taqsimlashni avtomatlashtirishdan maqsad – sug'orish manbaidan sug'orish tizimiga suvni tegishli qonun- qoida bo'yicha ist'emolchiga taqsimlash:

Suvni taqsimlashning quyidagi turlari mavjud:

**a) kanaldagi barcha suvni proporsional** (teng) taqsimlash suvni iste'mol qiluvchilar o'rtasida tashkil etiladi. Agar katta kanaldagi suv sarfi tinchlantirilsa misol uchun, suv olish inshootida, unda sarflar o'rtasidagi munosabat ham tinchanadi. Umuman sarflar o'zgaruvchan, lekin munosabatlar doimiydir.

Boshqaruvchi proporsional suv taqsimlashda, iste'molchilar o'rtasida kerakli suv berishni ta'minlaydi. Bunday taqsimot odatda respublikalararo va tizimlar o'rtasida qo'proq qabul qilingan.

Ayrim xollarda proporsional suv taqsimlash xo'jaliklararo kanallarda ham qo'llaniladi.

**b).** Suvdan foydalanish rejasi bo'yicha normalashgan suv taqsimlash eng ko'p tarqalgan.

**v).** Suvga bo'lgan talabga muvofiq suv taqsimlash sholikorlik so'g'orish tizimlarida, programmali sug'orishda qo'llaniladi.

Sug'orish tizimida bir vaqtning o'zida suv taqsimlashning bir necha turlarini bitta kanalning o'zida qo'llash mumkin.

Sug‘orish tizimida xar turli suv taqsimlash chizmalari qo‘llaniladi. Ularning har biri har turli avtomatlashtirish moslamalari yordamida amalga oshiriladi. Suv sarfi ajratilishi bo‘yicha suv taqsimlashni avtomatlashtirish chizmasini amalga oshirish eng oson deb hisoblanadi. U boshqalarga nisbatan tejamli: to‘sib turuvchi inshootga xojat yo‘q, zahirani saqlash uchun dambalar ko‘tarilmaydi va b. Uni barcha kanallarda qo‘llash mumkin. Suv taqsimlashni avtorostlovchisi chizmasida asosiga kanalni to‘sib turuvchi inshootlar yordamida beflarga bo‘lishdir. U erlarda suv sathini avtorostlovchilar tegishli chizmada joylashtiriladi. YAqin kelajakda suv taqsimlashni avtomatlashtirish chizmalarini yanada takomillashtirish tezkorligini oshirish, bekorga tashlab yuboriladigan suvlarni kamaytirish kanal parametrlarini kamaytirish, suv taqsimlashda gidravlik energiyadan ko‘proq foydalanish bilan amalga oshiriladi.

### **Sinov savollari.**

1. Suv olish deganda nimani tushuniladi?
2. To‘g‘onsiz va to‘g‘onli suv olish bo‘g‘inlari qanday vazifani o‘taydi?
3. Suv taqsimlashning asosiy vazifasi nimadan iborat?
4. Suv olish va suv taqsimlashni avtomatlashtirishga nimalar kiradi?

## **XII. SUVNI HISOBGA OLISH NATIJALARINI MASOFAGA AVTOMATIK UZATISH VA QABUL QILISH.**

### **12.1 Umumiy ma'lumot**

Xar qanday turdag'i uzluksiz ishlaydigan suv o'chagichlarni qo'llash suvni hisobga olishni avtomatlashtirishning birinchi boskichidir. Bu mukammal usulning yakuni suvni hisobga olish natijalarini avtomatik uzatish va qabul qilishdir. Natijada butun sug'orish tizimidagi suvni taqsimlashning ayrim nuqtalarida beriladigan suvni amaliy nazorat qilish va hisobga olish va sarflanadigan suvni aniqlash imkon bo'ladi.

Suvni hisobga olish ma'lumotlarini avtomatik uzoqqa uzatuvchi asboblarni **uzoqqa uzatuvchilar** deb ataladilar.

Gidrometrik post va suv o'chagichlarning ko'rsatkichlarini avtomatik uzatish va qabul qilish uchun ishlatiladigan asbob va jixozlar uch asosiy qismdan iborat.

a) Gidrometrik kuzatishlar va suvni hisobga olinadigan joyga (stvorda) joylashtirilgan avtomatik asbob- uzatuvchi;

b) Uzatuvchini qabul stansiyasi bilan simlar yordamidagi aloqasi (agar aloqa radio orqali bo'lsa, bunga xojat qolmaydi);

v) Qabul qiluvchi stansiya;

Uzoqqa uzatuvchilarining ishlash sharoitlari quyidagicha: avtomatik uzatkich suvni hisobga oluvchi stvordagi suv yuzidan yuqorida o'rtatiladi va kanaldagi (inshoot oldida) suv sathi bilan tros yordamida va po'kak jixozi bilan bog'langan, ularning tebranishi tishli mexanizm orqali elektr uzatkichi erdamida uzatiladi. Uzatkich suv sathi yuzasining (yoki suv sarflari) o'zgarishi asbobning mexaniq uzatkichi chiqaradigan signallarni beradi.

Suv sathining (yoki suv sarflarining) malum bir o'zgarishi aloqa yoli yoki radio orqali qabul qiluvchi stansiyaga uzatiladigan asbobning belgilangan signallar soniga mos keladi.


Gidropostdagи suv sathi va suv sarfi bo‘yicha malumotlarni qabul qilish uchun xizmat qiladigan elektr asboblari (limnigramma kurinishida, tuvush yoriqlik signallari va b.) bilan qabul qiluvchi stansiya jixozlangan.

## 12.2 Ma’lumotlarni uzatuvchi tizimlar

Hozirgi vaqtida sug‘orish tizimlarida qo‘yidagi uzoqqa uzatuvchi datchiklar ishlataladi.


Ularga SANIIRIda ishlab chiqilgan D.P. Kolodkevich va A.V.Sokolovlarning uzoqqa uzatuvchi datchiklar tizimi va ArmNIIGvaM da ishlab chiqilgan G.V.Vartanyanning uzoqqa uzatuvchi tizimlari kiradi.

2. D.P. Kolodkevichning uzoqqa uzatuvchi tizimlarining eng katta yutug‘i shundaki, u xech qanday simlarsiz telefon tarmog‘iga ularishi mumkin va bir marotaba qabul qilish vaqtida birnecha xabar beruvchilarning malumotini olishi mumkin (20-rasm).



**20-rasm. D.P. Kolodkevichning uzoqqa uzatish tizimining chizmasi**

3. Sokolovning uzoqqa uzatuvchi tizimlari shu paytdagi suv sathini ko'rsatadi va bu tizimning xarbir xabarni uzatuvchi ayrim bog'lanish yo'lini va ayrim qabul qilish joyini talab etadi (21-rasm).



### **21-rasm. A.V.Sokolovning uzoqqa uzatish tizimining chizmasi**

4. Vartanyanning uzoqqa uzatuvchi tizimlari ArmNIIGvaM ilmiy xodimi G.V. Vartanyan ajoyib konstruksiyali uzoqqa uzatuvchini yaratdi. Unda suvni hisobga olish joyida suv sathini kuzatish maxsus po'kaksiz, faqat datchiklar yordamida amalga oshiriladi. Ularning ishlashi suvgaga tushirilgan simlarning qarshiligini o'lchashga bag'ishlangan.

### **12.3 Umumiyl xulosa**

Suvni hisobga olishda ma'lumotlarini kuzatish va qabul qilishni avtomatlashtirish suv taqsimlashni ancha arzonlashtiradi (xizmat qiladigan xodimlar sonini kamaytirish hisobiga) va shu bilan ma'lumotlarni ishonchligini oshiradi. Ma'lumotlarni uzoqqa uzatish suvdan foydalanish rejasini amalga oshirishda qulay sharoitni yaratadi va sug'orish tizimlariga sug'orish uchun beriladigan suvni tejash imkonini beradi.

Mamlakatimizda avtomatika va telemexaniqaga katta etibor berilishi, ekspluatatsion gidrometriyada ma'lumotlarni uzoqqa uzatishi masalalarda katta yutuqlarga erishishga sabab bo'ladi.

## **Sinov savollari**

1. Ma'lumotlarni uzatish va qabul qilinishi avtomatlashtirishning qanday afzaliklari bor?
2. Uzoqqa uzatuvchilarga nimalar kiradi?
3. Kolodkevich, Sokolov va Vartanyanlarning uzoqqa uzatuvchi tizimlarining moxiyati nimadan iborat?
4. Ma'lumotlarni kuzatish va qabul qilishni avtomatlashtirishning amaliy axamiyati.

### **XIII. EKSPLUATATSION GIDROMETRIYA MA'LUMOTLARINI YIG'ISH VA ULARDAN FOYDALANISH.**

#### **13.1 Ekspluatatsion maydonlar**

Sug‘orish suvini hisobga olish bo‘yicha ishlarni yaxshi natijalar bilan amalgalash uchun xar bir sug‘orish tizimida ekspluatatsion gidrometriyani rejali tashkil etish lozim.

Barcha tizimlar suvni hisobga olish nuqtalarini hisobga olib tegishli **ekspluatatsion uchastkalarga** bo‘linadilar, u erda ayrim xo‘jaliklarga suv olish, suv taqsimlash va suv berish ishlari olib boriladi.

#### **13.2 Suvni hisobga olish nuqtalarini joylashtirish rejasini tuzish**

Ekspluatatsion maydonlar chegarasi tushurilgan tizim xaritasiga suvni hisobga olish nuqtalari tushuriladi. Suvni hisobga olish nuqtalarini o‘rnatish chizmasi asosida ularning rejasi tuziladi. Ularga xizmat ko‘rsatish ekspluatatsion gidrometriya bo‘yicha xodimlar shtati belgilanadi. Dala kuzatish ma'lumotlarini qayta ishslash, suv o‘lchash moslamalarining to‘g‘ri ishslashini tekshirish, taqsimlanish bo‘g‘inlarida suvni rostlash va sug‘orma suvlarning xo‘jaliklarda foydalanishini nazorat qilish va tizim va kanallarning foydali ish koeffitsientini aniqlashni sug‘orish boshkarmasi tamonidan belgilanadi.

Xo‘jaliklar xududida postlarni o‘rnatish va postlar, sarf o‘lchagichlar, suv o‘lchagichlar, o‘rni o‘zgartirish hao‘ida sarfdan foydalanuvchilarga o‘z vaqtida xabar berish zarur.

Suvni hisobga olish joylariga doimiy belgi (indeks xarf) beriladi va tizimning umumiyligi pasportiga yoziladi. Suvni hisobga olish olib berilayotgan inshootdagiga o‘zgarishlar postning maxsus daftarchasida qayt etiladi va muximlari xaqida maxsus dalolatnomasi tuziladi.

Agar kichik kanallarda suvni o‘lchash moslamalari mavjud bo‘lmaganda, suvni hisobga olishda ko‘chma sarf o‘lchagichlar- suv tushirgichlar, uchliklar o‘rnatilgan to‘siqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **13.3 Ekspluatatsion gidrometriya xodimlarinig majburiyatları**

Sug‘orish tizimlarining gidrometrlari va gidrometriya bo‘yicha yordamchi xodimlar suvni hisobga olish joylarida, suv o‘lhash ishlarini olib borishi kerak. Ularga suv sarfini o‘lhash, suv tushirgichlar novlar, uchliklardagi suv o‘lhash reykasidan sanoq olish va asboblar- avtomatlar bo‘yicha sanoq olish va dala sharoitida olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, suv o‘lhash moslamalarining to‘g‘ri ishlayotganini tekshirish sug‘orma suvni xo‘jaliklarda ishlatilishini nazorat qilish va tizimning va kanallarning foydali ish koeffitsentini aniqlash kiradi.

Har bir xo‘jalikning mudiri harbir xo‘jalikka suv o‘lhash moslamalaridan reja bo‘yicha suvning taqsimlanishini tekshirib turish kerak. Kuzatuvchi suv sathini kuzatishdan tashqari zarurat bo‘lsa, rostlovchi o‘rnatilgan taqdirda yana suv sathi va suv sarfini rostlashi ham kerak.

### **13.4 Ekspluatatsion gidrometriya postlaridagi kuzatish muddatlari**

Suvni hisobga olish va u bilan bog‘liq bo‘lgan tayyorgarlik va nazorat ishlar belgilangan muddatlarda olib boriladi, lekin ular suv olish, suvni taqsimlash va xo‘jaliklarga suvni ajratish ishlari bilan bog‘lab olib borilishi shart. Barcha tekshiruv, postlarni suv sarfini o‘lhashga tayyorlash, ta’mirlash ishlari va yangi suv o‘lhashga postlarini ochish ishlari sug‘orish davri boshlanguncha tugatilishi kerak. Butun sug‘orish mavsumida suv o‘lhash postlari muntazam tekshirilib turiladi.

Sug‘orish manbalarida va yirik magistral kanallarda suvni hisobga olish doimiy suv oqimlarida yil bo‘yi yoki faqat sug‘orish mavsumida sutkada bir marta-ertalab soat 8da bajariladi. SHunday qilib, shu suv oqimlari bo‘yicha suvni hisobga olish natijasida xoxlagan vaqt uchun va sug‘orish mavsumi uchun suv sarfi va uning zaxiralari bo‘yicha ma’lumot olish mumkin.

Suv sarfidan tashqari, har o'n kunda loyqa oqiziqlar o'lchanadi, sug'orish kanallari va sug'orish manbalarini o'zanlarining turg'unligi kuzatiladi.

Suv manbaidan olinadigan suv asosan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun ishlataladi, lekin olinadigan suvning barchasi dalaga etib kelmaydi: m'lum bir qismi shimalishga va bug'lanishga bekorga isrof bo'ladi, ayrimlari esa, inshootdan, dambadan, novdan texnika nosozligi tufayli isrof bo'ladi.

Ma'lum bir davrda dalaga beriladigan suvning sug'orish tizimi boshidagi suvga nisbati sug'orish tizimining foydali ish koeffitsienti (FIK) deb ataladi. Tizimdagi uskunalar mukammal bo'limganida yoki u qoniqarsiz ekpluatatsiya qilinganda, kanallardagi suv isrofi ko'payadi va natijada FIK pasayadi.

Suvni hisobga olish ishlari kanallarda sodir bo'layotgan suv isrofini aniqlash imkonini beradi va suv isroflarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qurishda foydalilanadi.

Ayrim kanalda ma'lum oraliqda o'rnatilgan ikki postdag'i suv xajmlari o'rtasidaga farq suv isrofini tashkil etadi.

### **Sinov savollari**

1. Ekspluatatsion uchastkalar nima?
2. Ekspluatatsion gidrometriyadagi kuzatuvchining vazifasiga nimalar kiradi?
3. Kuzatashlar qaysi tartibda olib boriladi?
4. Kanallardagi suv isroflariga nimalar kiradi?
5. Foydali ish koeffitsienti deganda nimani tushunasiz?
6. Tranzit suv sarflarini hisobga olish uchun qo'llaniladigan suv o'lhash inshootlari va moslamalari

## А Д А Б И Ё Т Л А Р

1. Карасев И.Ф., Васильев А.В., Субботина Е.С. Гидрометрия.-Л.: Гидрометеоиздат, 1991.-376 с.
2. Лучшева А.А. Практическая гидрометрия.-Л.: Гидрометеоиздат, 1972.-380 с.
3. Михайлов В.Н., Добровольский А.Д., Добролюбов С.А. Гидрология: Учебник. – М.: Высшая школа, 2007. – 463 с.
4. Сикан А.В., Орлов В.Г. Основы инженерной гидрологии. – С.-Петербург: РГГМУ, 2009. -187 с.
5. Иванова Г.Ф. Метеорологические приборы и измерения. Уч. пособие. 2-е издание. Саратов: Научная книга. 2006. (25 экз. на кафедре)
6. Волчек А.А., Курсаков В.К., Волчек Ан.А. Гидрометрическая практика. Горки : УО «БГСА», 2011. 240 с.
7. Посыпанов С.В. Гидрометрия: методические указания к проведению учебной практики (издание 2-е, переработанное и дополненное). Архангельск : РИО С(А)ФУ, 2010. 46 с.
8. Карасев И.Ф., Васильев А.В., Субботина Е.С. Гидрометрия: учебник для вузов по спец. «Гидрология суши». Л. : Гидрометеоиздат, 1991. 375 с.
9. Bochkarev YA.V. i dr. Osnovы avtomatiki i automatizatsiya proizvodstvennyx protsessov v gidromelioratsii. M., «Kolos», 1969. 392 s.
10. Voskresenskiy S. V., Goze N.P. Pribory dlya izmereniya skorostey techeniya vody. L., Rechizdat SUEGMS, 1935. 116 s.
11. Dimakyan A.M. Gidrologicheskie pribory. L., Gidrometeoizdat, 1972. 284 s.
12. Jeleznyakov G.V. Teoreticheskaya gidrometriya. L., Gidrometeoizdat, 1976. 343 s.
13. Jeleznyakov G.V., Danilevich B.B. Tochnost gidrologicheskix izmereniy i raschetov. L., Gidrometeoizdat, 1966. 240 s.
14. Jeleznyakov G.V., Negovskaya T.A., Ovcharov J.E. Gidrologiya.gidrometriya, regulirovanie stoka, Uchebnik- M."Kolos", 1984, 432-s.
1. Karasev I.F., Vasilev A.V., Subbotina E.S. Gidrometriya.L.: Gidrometeoizdat, 1991.-376 s.
2. Karasev I.F., CHijov A.N. O kriteriyakh tochnosti izmereniya urovney vody na rekax i vodoxraniliščах. – «Meteorologiya i hidrologiya», 1967, № 7, 59-67.
3. Masumov R.R. Assotsiatsii vodopotrebitelye: texnicheskie aspekty hidrometrii i ucheta vodopotrebleniya, - Tashkent, 2015, 92 s.
4. Masumov R.R. Sovremennoe sostoyanie vodoucheta na transgranichnyx i malых rekax Sentralnoy Azii i rekomendatsii po povysheniyu kachestva i tochnosti ucheta vodnyx resursov, - Tashkent, 2014, 24 s.
5. MVI 06-90 «Metodika vyroplneniya izmereniy rasxoda s pomoshchi spetsialnyx sujayuščix ustroystv meliorativnogo naznacheniya».

## M U N D A R I J A

	Bet
I KIRISH	3
I FAN HAQIDA MA'LUMOTLAR	4
1.1 Gidrometriya haqida umumiy tushuncha	4
1.2 Gidrometriya turlari	5
1.3 Ekspluatatsion gidrometriya fani asoslari va vazifalari	5
1.4 Ekspluatatsion gidrometriyaning gidromeliorativ tarmoqdagi ahamiyati	6
II GIDROMELIORATIV TIZIMDA SUVNI HISOBGA OLISH XIZMATI VA UNING VAZIFALARI	8
2.1 Gidromeliorativ tizim haqida tushuncha	8
2.2. Gidromeliorativ tarmoqda suvni hisobga olish vazifalari	8
2.3 Suvni hisobga olish joylari	9
2.4 Suv o'lhash joylari tasnifi	10
2.5 Suvni o'lhash joylarini o'rnatish shartlari	11
III GIDROMELIORATIV TIZIMDAGI GIDROMETRIK ISHLAR VA SUVNI HISOBGA OLISH USULLARI	14
3.1 Gidrometrik ishlar haqida tushuncha	14
3.2 Gidrometrik ishlar turlari	14
3.3 Suvni hisobga olish usullari	15
IV SUVNI HISOBGA OLISH VOSITALARI	18
4.1 Suvni hisobga olish vositalarining guruhlarga bo'linishi	18
4.2 Suv o'lhash asboblarining sinfi	20
4.3 Suvni o'lhash vositalariga kuyilgan asosiy talablar	20
4.4 Suvni hisobga olish vositalarini tanlash, ularni qo'llash va qayta tekshirish bo'yicha umumiy holatlar	21
V EKSPLUATATSION GIDROMETRIYADAGI SUV SARFINI HISOBGA OLISHNING O'ZANLI USULI	24
5.1 O'zanli usul mohiyati	24
5.2 Gidrometrik post o'rnnini tanlash, uning tuzilishi va jihozlanishi	26
5.3 Suv sathini o'lhash postlari va ularni jihozlash	29
VI TRANZIT(otvodlar) SUV SARFINI HISOBGA OLISH UCHUN QO'LLANILADIGAN SUV O'LHASH INSHOOTLARI VA MOSLAMALARI	31
6.1 Tranzit suv o'lchagichlar haqida tushuncha	31
6.2 SANIIRI suv o'lhash ostonasining asosiy parametrlari	31
6.3 SANIIRI suv o'lhash novi	35
6.4 Parabolik novlar	38
6.5 Suv o'tkazgichlar-vodoslivlar	40
6.6 Suv o'lhash nasadkalari	47
VII SUV O'LCHAGICH-ROSTLOVCHILAR	51
7.1 Suv o'lchagich-rostlovchilar haqida umumiy tushuncha	51
7.2 Qo'shimcha jihozli suv o'lchagich-rostlovchilar	52

	7.3 Qo'shimchali suv o'lchagich trubkasimon rostlovchining konstruksiyasi	52
	7.4 Suv o'lchagich-rostlovchi asboblari shkalasini darajalash	60
VIII	<b>TARIROVKALANGAN GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI</b>	63
	8.1 Tarirovka haqida tushuncha	63
	8.2 Gidrotexnik inshootlarni tarirovka qilishdagi tayyorgarlik ishlari	64
	8.3 Tarirovkaning gidrometrik usuli	65
	8.4 Tarirovkaning gidravlik usuli	71
	8.5. Tarirovkalangan inshootlarda suvni hisobga olish.	71
IX	<b>GIDROMELIORATIV TIZIMDA QO'LLANILADIGAN UZLUKSIZ YOZISHNI QAYD ETUVCHI ASBOBLAR.</b>	73
	9.1 O'ziyozgich asboblar haqida to'shuncha	73
	9.2 Gidromeliorativ tizimida suvni hisobga olishda foydalanadigan suv sathini uzi yozgich asboblar	73
	9.3 Sarfgraflar	74
	9.4 Oqim hisoblagichlari	75
	9.5 Sug'orish tarmog'ida uzluksiz yozishni qayd etadigan jihozlarni o'rnatish sharoitlari	75
X	<b>AVTOMATLASHTIRISHNING XOZIRGI ZAMON MOSLAMALARI</b>	77
	10.1 Avtomatlashtirishning gidrometriyadagi ahamiyati.	77
	10.2 Avtomatlashtirish moslamalarining tasnifi	78
	10.3 Elektrik avtorostlovchilar	79
	10.4 Suv sathini gidravlik avtorostlovchilar	80
XI	<b>TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTAMATLASHTIRISH</b>	81
	11.1 Suv olish bug'inlari haqida tushuncha.	81
	11.2 Suvni taqsimlash	83
XII	<b>SUVNI HISOBGA OLISH NATIJALARINI MASOFAGA AVTOMATIK UZATISH VA QABUL QILISH.</b>	84
	12.1 Umumiy ma'lumot	84
	12.2 Ma'lumotlarni uzatuvchi tizimlar	86
	12.3 Umumiy xulosa	87
XIII	<b>EKSPLUATATSION GIDROMETRIYA MA'LUMOTLARINI YIG'ISH VA ULARDAN FOYDALANISH.</b>	89
	13.1 Ekspluatatsion maydonlar	89
	13.2 Suvni hisobga olish nuqtalarini joylashtirish rejasini tuzish	89
	13.3 Ekspluatatsion gidrometriya xodimlarinig majburiyatlari	90
	13.4 Ekspluatatsion gidrometriya postlaridagi kuzatish muddatlari	90

# О ГЛАВЛЕНИЕ

	<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	3
I	<b>I ОБЩАЯ ИНФОРМАЦИЯ</b>	4
	1.1 Общее понятие о гидрометрии	4
	1.2 Виды гидрометрии	5
	1.3 Основы и задачи эксплуатационной гидрометрии	5
	1.4 Важность оперативной гидрометрии в мелиоративной сети	6
II	<b>ОБСЛУЖИВАНИЕ И МЕТОДОЛОГИЯ УЧЕТА ВОДЫ И ЕЕ ФУНКЦИИ В ГИДРОМЕЛИОРАТИВНОЙ СИСТЕМЕ</b>	8
	2.1 Концепция гидромелиоративной системы	8
	2.2. Задачи по учету воды в гидромелиоративной сети	8
	2.3 Выбор мест для учета воды	9
	2.4 Классификация постов учета воды	10
	2.5 Условия установки постов учета воды	11
III	<b>III ГИДРОМЕТРИЧЕСКАЯ РАБОТА И ВОДНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ В ГИДРОМЕЛИОРАТИВНОЙ СИСТЕМЕ</b>	14
	3.1 Понятие гидрометрических работ	14
	3.2 Виды гидрометрических работ	14
	3.3 Методы учета воды	15
IV	<b>МЕТОДЫ УЧЕТА ВОДЫ</b>	18
	4.1 Разделение приборов учета воды на группы	18
	4.2 Виды водомеров	20
	4.3 Основные требования к счетчикам воды	20
	4.4 Общие условия выбора, применения и повторной проверки счетчиков воды	21
V	<b>КОНСТРУКЦИОННЫЙ МЕТОД РАСЧЕТА ВОДОПОТРЕБЛЕНИЯ ПРИ РАБОТЕ ГИДРОМЕТРИИ</b>	24
	5.1 Сущность поточного метода	24
	5.2 Выбор места размещения гидрометрического поста, его конструкции и оборудования	26
	5.3 Посты измерения уровня воды и их оборудование	29
VI	<b>VI ТРАНЗИТНЫЕ (ПИСЬМЕННЫЕ) ВОДОМЕРЫ И ПРИБОРЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ДЛЯ ПОТРЕБЛЕНИЯ ВОДЫ</b>	31
	6.1 Понятие транзитных счетчиков воды	31
	6.2 Основные параметры порога учета воды САНИИРИ	31
	6.3 Счетчик воды САНИИРИ	35
	6.4 Параболические балки	38
	6.5 Акведуки	40
	6.6 Водомерные насосы	47
VII	<b>VII ИЗМЕРЕНИЯ ВОДЫ</b>	51
	7.1 Общее понятие о счетчиках воды	51
	7.2 Водомеры-регуляторы с дополнительным оборудованием	52
	7.3 Устройство трубчатого регулятора вспомогательного	52

	счетчика воды	
	7.4 Нивелировка шкалы счетчиков воды	60
VIII	<b>VIII СТАНДАРТИЗОВАННЫЕ ГИДРОТЕХНИЧЕСКИЕ ПРИБОРЫ</b>	63
	8.1 Концепция постукивания	63
	8.2 Подготовительные работы к обследованию гидротехнических сооружений	64
	8.3 Гидрометрический метод врезки	65
	8.4 Гидравлический способ нарезания резьбы	71
	8.5. Учет воды в полуразрушенных конструкциях.	71
IX	<b>IX ГИДРОМЕЛИОРАТИВНАЯ СИСТЕМА, ИСПОЛЬЗУЮЩАЯ ИНСТРУМЕНТЫ НЕПРЕРЫВНОЙ ЗАПИСИ.</b>	73
	9.1 Понятие о самопищащих устройствах	73
	9.2 Самовыравнивающиеся устройства, применяемые в системах мелиорации воды для учета воды	73
	9.3 графики для учета расходов воды	74
	9.4 Расходомеры	75
	9.5 Условия установки оборудования для записи непрерывной записи в оросительной сети	75
X	<b>X СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ АВТОМАТИЗАЦИИ</b>	77
	10.1 Важность автоматизации в гидрометрии.	77
	10.2 Классификация устройств автоматизации	78
	10.3 Электрические автотрансформаторы	79
	10.4 Гидравлические регуляторы уровня воды	80
XI	<b>XI АВТОМАТИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ</b>	81
	11.1 Понятие о водозаборных патрубках.	81
	11.2 Распределение воды	83
XII	<b>XII АВТОМАТИЧЕСКАЯ ПЕРЕДАЧА И ПРИЕМ РЕЗУЛЬТАТОВ РЕГИСТРАЦИИ ВОДЫ.</b>	84
	12.1 Общая информация	84
	12.2 Системы передачи данных	86
	12.3 Общий вывод	87
XIII	<b>XIII СБОР И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАБОЧИХ ДАННЫХ ГИДРОМЕТРИИ.</b>	89
	13.1 Рабочие зоны	89
	13.2 Разработать план расположения точек учета воды	89
	13.3 Обязанности оперативного гидрометрического работника	90
	13.4 Сроки наблюдений на оперативных постах	90

# C O N T E N T

	INTRODUCTION	3
I	I GENEREAL INFORMATION	4
	1.1 Basic information about Hydrometrics	4
	1.2 Types of Hydrometrics	5
	1.3 Main tasks of modern exploitational hydrometrics	5
	1.4 The role of exploitational hydrometrics in hydromeliorative network systems	6
II	II WATER METERING SERVICE AND ITS IMPORTANCE IN HYDROMELIORATIVE NETWORK SYSTEMS	8
	2.1 General information about hydromeliorative network systems	8
	2.2. Main tasks of water metering in hydromeliorative network systems	8
	2.3 Water metering network places	9
	2.4 Classification of water metering network places	10
	2.5 Basic requirements for setting of water metering stations	11
III	HYDROMETRIC TASKS AND WATER METERING METHODS IN HYDROMELIORATIVE NETWORK SYSTEMS	14
	3.1 The concept of hydrometric tasks	14
	3.2 Types of hydrometric tasks	14
	3.3 Methods of water metering	15
IV	WATER METERING METHODS	18
	4.1 Classification of water metering devices into groups	18
	4.2 Classes of water meters	20
	4.3 Basic requirements for water meters	20
	4.4 General conditions for selection, application and re-inspection of water meters	21
V	V CONSTRUCTION METHOD OF WATER CONSUMPTION IN OPERATING HYDROMETRY	24
	5.1 The meaning of the flow method	24
	5.2 Selection of hydrometric post location, its structure and equipment	26
	5.3 Water level measuring stations and their equipment	29
VI	VI TRANSIT (WRITING) WATER MEASUREMENT FACILITIES AND INSTRUMENTS USED FOR WATER CONSUMPTION	31
	6.1 The concept of transit water meters	31
	6.2 Basic parameters of SANIIRI water metering threshold	31
	6.3 SANIIRI water meter	35
	6.4 Parabolic beams	38
	6.5 Aqueducts	40
	6.6 Water metering pumps	47
VII	WATER MEASUREMENTS	51

7.1	General concept of water meters	51
7.2	Water meters-adjusters with additional equipment	52
7.3	Construction of auxiliary water meter tubular adjuster	52
7.4	Leveling the scale of water meters	60
<b>VIII</b>	<b>DRAWN HYDRAULIC ENGINEERING</b>	<b>63</b>
8.1	The concept of tapping	63
8.2	Preparatory work for the survey of hydraulic structures	64
8.3	Hydrometric method of tapping	65
8.4	Hydraulic method of tapping	71
8.5.	Water metering in dilapidated structures.	71
<b>IX</b>	<b>HYDROMELIORATIVE SYSTEM USING CONTINUOUS WRITING RECORDING TOOLS.</b>	<b>73</b>
9.1	The concept of self-propelled devices	73
9.2	Self-leveling devices used in water reclamation systems for water metering	73
9.3	Expenditures	74
9.4	Flow meters	75
9.5	Conditions for installation of equipment for recording continuous recording in the irrigation network	75
<b>X</b>	<b>MODERN AUTOMATION INSTRUMENTS</b>	<b>77</b>
10.1	Importance of automation in hydrometry.	77
10.2	Classification of automation devices	78
10.3	Electric Autotransformers	79
10.4	Water level hydraulic adjusters	80
<b>XI</b>	<b>AUTOMATION OF TECHNOLOGICAL PROCESSES</b>	<b>81</b>
11.1	The concept of water intake joints.	81
11.2	Water distribution	83
<b>XII</b>	<b>AUTOMATIC TRANSMISSION AND RECEIPT OF RESULTS OF XII WATER REGISTRATION</b>	<b>84</b>
12.1	General Information	84
12.2	Data transmission systems	86
12.3	General Conclusion	87
<b>XIII</b>	<b>XIII COLLECTION AND USE OF OPERATING HYDROMETRY DATA</b>	<b>89</b>
13.1	Operating areas	89
13.2	Develop a plan for the location of water metering points	89
13.3	Responsibilities of operational hydrometry personnel	90
13.4	Observation periods at operational hydrometry posts	90